TASDIQLAYMAN: ***_____-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori:***

_____

M.M.I.B.D.O':

_____

Farg`ona_____

XTMFMTTEB tasarrufidagi

____umumiy o'rta ta'lim maktabi

_____fani o'qituvchisi

_____ ning

„JONAJON TILIM "

to`garagi hujjatlari.

Ona tili fanidan to'garak ish rejasi.

№	MAVZULAR	soat	O'tiladi gan sana	O'tilgan sana
1	Kirish suhbati: Til- ijtimoiy hodisa.	1		
2	O'zbek tili- Davlat tili.	1		
3	Gap. Gapda so'zlarning bog'lanishi.	1		
4	To'ldiruvchi.	1		
5	Ot. Turdosh va atoqli otlar.	1		
6	Sifat. Sifat darajalari.	1		
7	Son. Sonlarning yozilishi.	1		
8	Olmosh.	1		
9	Asos va qo'shimchalar.	1		
10	Shakl yasovchi qo'shimchalar va ularni tasnifi.	1		
11	So'z tarkibida tartib	1		
12	To'plam va tasnif.	1		
13	Fe'l	1		
14	Sifatdosh	1		
15	Ravishdosh	1		
16	Ko'makchi fe'llar.	1		
17	Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari.	1		
18	Kelasi zamon shakllari.	1		
19	Mayl shakllari	1		
20	Ot	1		
21	Aniq va mavhum otlar.	1		
22	Sifat	1		
23	Asliy va nisbiy sifatlar.	1		
24	Son	1		
25	Jamlovchi son uning yasalishi.	1		
26	Taqsim son, uning yasalishi.	1		
27	Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi.	1		
28	Olmosh o'rnida ishlatiladigan so'zlar.	1		
29	Olmoshning tuzilishiga ko'ra turlari.	1		
30	Sodda va qo'shma olmoshlar ularning turlari.	1		
31	Kelishik shakllari			
32	Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning sl	1		
33	Bog'lovchilar	1		
34	Yuklama haqida ma'lumot.	1		

O'quvchilar haqida ma'lumot.

№	*O'quvchilarning familya va ismi*	*sinfi*	*manzili*	*Telefon raqami*
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				
14				
15				
16				
17				
18				
19				
20				

I-Sana_____ -_____ **1 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Kirish suhbati: Til- ijtimoiy hodisa.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Kirish suhbati: Til- ijtimoiy hodisa haqida ilmiy tushunchalar berish

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a)salomlashilsh b)navbatchi axboroti

c)davomatni aniqlash d)uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a)o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c)mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Yer yuzidagi xalqlar nima uchun har xil tilda gaplashishadi?
2. Til – ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz?
3. Nima uchun yovvoyi hayvonlar ichida o'sgan bolalar gapira olmaydi?

XI-Yangi mavzu bayoni:

1-topshiriq. Ertalab turib ota-onangizga, oila a'zolaringizga nima deysiz? Ular bilan gaplashayotganda qaysi tildan foydalanasiz? Ona tili deyilishi sababini izohlang.

2-topshiriq. Nima uchun Rossiyada yoki Amerikada o'zbek tilida gaplashishmaydi? Nega rus, ingliz, nemis, arab tillarini maxsus o'rganamiz? Shu til sohiblari qayerlarda yashashini ayting.

Yer yuzida tillar ko‘p. Olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra ularning miqdori 3000 dan ortib ketadi. Masalan: rus, ingliz, nemis, arab, fors, koreys va boshqa tillar. Tillarning barchasi insonlar o‘rtasidagi aloqa-aralashuvni ta’minlash vazifasini bajaradi.

Rossiyada rus tilida, Fransiyada fransuz tilida, Eronda fors tilida gaplashishadi.

Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi. Jamiyatdan uzilgan, insonlarning o‘zaro aloqasiga xizmat qilmaydigan til o‘lik tildir.

Siz kitoblar, kinofilmlar orqali yovvoyi hayvonlar orasida o‘sgan bolalar haqida ma’lumot olgansiz. O‘shanda bir narsaga e’tibor berganmisiz? Bunday bolalar hayvoniy qiliqlarga ega bo‘lib, eng muhim insoniy fazilatdan – so‘zlashdan mahruni edilar.

Demak, til jamiyatga, ya’ni odamlarning o‘zaro munosabatga kirishuviga, aloqa qilishiga xizmat qiladi, shuning uchun u ijtimoiy hodisa sanaladi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin o‘zbek tilining ijtimoiy vazifalari yanada kengaydi.

1-mashq. Quyidagi so‘zlarning o‘zbek tilida paydo bo‘lish sabablarini aniqlang.

kollej, litsey, tadbirkor, fermer, tuman, viloyat.

2-mashq. Matnni o‘qing va undagi g‘oya haqida o‘z fikringizni bayon qiling.

Podshoh bir kuni vazirlariga:

– Menga eng lazzatli taom pishirib keltiringlar,–dedi.

Vazirlar maslahatlashib unga til go‘shtidan taom pishirib keldilar.

Taom podshohga ma’qul bo‘ldi.

U: – Endi esa menga eng achchiq narsadan tayyorlangan ovqat olib kelinglar, – deb farmon berdi.

Bu gal ham unga til go‘shtidan ovqat pishirib keldilar.

Podshohga topshiriqning ijrosi maqbul bo‘ldi. Nima uchun?

3-mashq. Quyidagi maqollarni daftaringizga yozib oling va yodlang.

Tig‘ yarasi bitadi, lekin til yarasi bitmaydi. Odobning boshi – til. Yaxshi so‘z – jon ozig‘i, yomon so‘z – bosh qozig‘i. Yaxshi so‘z bilan ilon inidan chiqadi, yomon so‘z bilan pichoq – qinidan. Til – dil kaliti.

XII-

Mustahkamlash:

***4-mashq. Topishmoqlarning javobini toping. O‘zingiz ham *til, so‘z, ilm, kitob* haqida bilgan topishmoqlaringizni o‘rtoqlaringizga aytib bering.**

1. Tilsiz aql o‘rgatar. 2. Og‘izdan chiqquncha meniki, og‘izdan chiqqani elniki. 3. Asaldan shirin, zahardan achchiq. 4. Temir qo‘rg‘on ichida qizil toychoq o‘ynaydi. 5. Bir nafasda olamni kezar.

5-mashq. *Uyga topshiriq.* **Bugungi ozod va obod hayotimiz haqida fikrlaringizni yozing.**

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **2 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: O'zbek tili- Davlat tili.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – O'zbek tili- Davlat tili haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a)salomlashilsh b)navbatchi axboroti

c)davomatni aniqlash d)uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a)o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c)mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Yer yuzidagi xalqlar nima uchun har xil tilda gaplashishadi?
2. Til – ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz?
3. Nima uchun yovvoyi hayvonlar ichida o'sgan bolalar gapira olmaydi?
4. O'zbeklarning qayerlarda istiqomat qilishi haqida so'zlab bering.
5. ***Ijtimoiy*** so'ziga izoh bering.
6. O'zingiz o'rganayotgan xorijiy til haqida nimalarni bilasiz?

XI-Yangi mavzu bayoni:

1-topshiriq. Nima uchun ota, aka-uka yoki opa-singil tili emas, aynan onaga nisbat berib *ona tili* atamasidan foydalanamiz? Shu haqda bahs yuriting.

2-topshiriq. Siz yashayotgan yoki Sizga yaqin bo'lgan ko'cha, mahallaning 10–15 yil oldin qanday nom bilan yuritilganini eshitganmisiz? Agar farqlansa, buning sababini aytib bering.

Har bir millat o'z hayoti davomida aloqa-aralashuv quroli sifatida, asosan, bitta tildan foydalanadi. Farzandni tarbiyalab voyaga yetkazishda onaning o'rni beqiyos bo'lganligi, bola ilk tovushlarni, so'zlarni onasidan eshitganligi bois, bu tilga ona tili deyiladi.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida ona tilimizni asrab-avaylab kelganlar.

! 1989-yilning 21-oktabr kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Shundan boshlab ta’lim-tarbiya ishlari, majlislar, ish qog‘ozlari, asosan, o‘zbek tilida yuritiladigan bo‘ldi.

Mustaqillik tufayli bu ish yanada jadallashdi.
Milliy qadriyatlarimizni, tariximizni o‘rganish uchun keng yo‘l ochildi.

6-mashq. Quyidagi hikmatli so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing. O‘zingiz ham shunday misollar toping.

Ona tilim – jon-u dilim.
Ona tilim – jonimga masih.
Ona tilisini unutganlar xor bo‘ladi.

***7-mashq. She’rni o‘qing va unda ilgari surilgan g‘oyani aniqlang. Uning mustaqillik g‘oyasiga birlashadigan jihatlari haqida gapiring.**

Ona tilim – onajonim tili bu –
Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa.
El-u yurtim xonumonim tili bu,
Qadimlikda o‘xshar ona tuproqqa.

8-mashq. Rasm asosida «Ona – ulug‘ zot» mavzusida matn tuzing.

Tayanch so‘zlar: ona, bola, chaqaloq, beshik, alla, mehr, Vatan, munosib, farzand, ulg‘aymoq, tarbiyalamoq, sevmoq, duosini olmoq, xizmat qilmoq

XII-

Mustahkamlash:

1. Ona tili deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi qachon berilgan?
3. Tilimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida nima deysiz?

◆ **9-mashq.** *Uyga topshiriq.* **Mustaqillik tufayli tilimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida hikoyacha yozing.**

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **3 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Gap. Gapda so'zlarning bog'lanishi.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Gap. Gapda so'zlarning bog'lanishi haqida ilmiy tushunchalar berish

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a)salomlashilsh b)navbatchi axboroti

c)davomatni aniqlash d)uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a)o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c)mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Ona tili deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek tiliga davlat tili maqomi qachon berilgan?
3. Tilimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida nima deysiz?

XI-Yangi mavzu bayoni:

1-topshiriq. *1. Gulzor, gul, ter. 2. Gulzordan gul teraman.*

Birinchi qatordagi uchta so'z bilan ikkinchi qatordagi so'zlar nimasi bilan farq qilishini ayting.

2-topshiriq. Vatanni sevish to'g'risida maqol ayting. Tarkibida nechta so'z borligini aniqlang.

Siz yangi bir ertakni eshitdingiz. Uni o'rtoqlaringizga aytib bermoqchisiz. Ana shunda nima qilasiz? O'zingiz mansub bo'lgan tilning qonun-qoidalari asosida so'zlarni qo'shib hosil qilingan gaplardan foydalanasiz. Demak, nutqimiz gaplardan iborat bo'ladi. Masalan: 1. *Baliqchi chol oltin baliq ushlab olibdi.* 2. *Sevinibdi.* Bularning har ikkisi gap, lekin birinchisi bir necha so'zdan, ikkinchisi esa faqat bitta so'zdan tashkil topgan. Ularning har ikkisi uchun muhim narsa kesimlarning mavjudligi, tugallangan ohang

bilan aytilishi va fikr ifodalashidir. Ana shu belgisi bilan gap so‘z va so‘z birikmasidan farq qiladi.

Gap tarkibida ishtirok etgan so‘zlar bir-biri bilan bog‘lanadi. Masalan: *qir va adir, Oygul bilan Baxtiyor; gulni hidlamoq, maktabga kelmoq* kabi. Misollardan ko‘rinadiki, so‘zlarning bog‘lanishi bir xil emas. Ayrim so‘zlar *va, ham, hamda, bilan* singari bog‘lovchi va bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yoki sanash ohangi yordamida bog‘lanadi.

Boshqalarida esa birinchi qism ikkinchi qismga *–ni, –da, –dan, –ning* kabi qo‘shimchalar, *tomon, to‘g‘risida, haqida, uchun* singari yordamchi so‘zlar bilan bog‘lanadi. Masalan: *akasiga olmoq, akasi uchun olmoq.*

61-mashq. Quyidagi so‘zlardan foydalanib gaplar tuzing, so‘zlarning bog‘lanishiga alohida diqqat qiling.

1. Ma’naviyat, qalb, quyosh. 2. Biz, Amir Temur, nabira. 3. Mustaqillik, abadiy, bo‘l. 4. Siz, o‘z, Vatan, sev. 5. Iste’dod, bola, deganda, kim, tushun. 6. Ona, tabiat, e’zoz.

62-mashq. O‘qing. Har bir qatordagi gap, so‘z va so‘z birikmalari sonini aniqlang.

1. Ko‘hna Samarqand. Har bir o‘zbek bu shahar bilan faxrlanadi. 2. Mana Registon. Binolarga hayrat bilan boqaman. 3. Kuch – adolatda. Bu – Sohibqironning hayotdagi shiori edi. 4. Kuch – bilimda. U insonni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi mayoqdir.

✓ **63-mashq.** ***Ertasi, shahrimiz, tonggi, bobom, do‘stning, yuksak, kelajagi*** **kabi so‘zlarni tegishli so‘zlar bilan kengaytiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Namuna: Ertasi: Vatanimning ertasi – Vatanimning ertasi charog‘on. X

II-Mustahkamlash:

1. Gapda so‘zlar necha xil usul bilan bog‘lanadi?
2. Teng bog‘lanishga misollar keltiring.
3. Tobe bog‘lanishga misollar ayting.
4. *Kitob o‘qidim, yer va quyosh* birikmalaridagi so‘zlarning bog‘lanish usullarni aniqlang.

68-mashq. *Uyga topshiriq.* **So‘zlarni bir-biriga bog‘lab gaplar hosil qiling va ularni daftaringizga ko‘chiring.**

1. Biz, bog‘, ish. 2. Ona, dunyo, eng, chiroyli, ayol. 3. Toza, yur, kasal, bo‘l. 4. Alisher Navoiy, o‘zbek, xalq, buyuk, shoir. 5. Uy, ish, ona, yordam.

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **4 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: To'ldiruvchi.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – To'ldiruvchi haqida ilmiy tushunchalar berish

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a)salomlashilsh b)navbatchi axboroti

c)davomatni aniqlash d)uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a)o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c)mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baholash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Gapda so'zlar necha xil usul bilan bog'lanadi?
2. Teng bog'lanishga misollar keltiring.
3. Tobe bog'lanishga misollar ayting.
4. *Kitob o'qidim, yer va quyosh* birikmalaridagi so'zlarning bog'lanish usullarni aniqlang.

XI-Yangi mavzu bayoni:

1-topshiriq. Oldi yig'iq gapini ***kim?, nimani?, kimdan?*** so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar bilan kengaytirib, yoyiq gap tuzing.

2-topshiriq. Quyida berilgan gap bo'laklarining har biriga so'roqlar bering.

Ustoz otangdan ulug'.

! Fe'lga bog'lanib, *kimga?, nimaga?, kimdan?, nimadan?, kimni?, nimani?, kim bilan?, nima bilan?* singari so'roqlarga javob bo'luvchi bo'laklarga to'ldiruvchi deyiladi.

☞ Tahlilda to'ldiruvchi ostiga uzuq chiziqchalar (_ _ _ _ _) chiziladi: Bu so'zdan Hamid ajablandi. *(X. Sultonov)*

141-mashq. Maqollarni ko'chiring. To'ldiruvchilarni topib, tagiga chizing. Maqollarda ilgari surilgan fikrlarga hayotingizdan misollar keltiring.

1. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, yomon bilan yursang, qolarsan uyatga. 2. Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga. 3. O‘zingga o‘zingni maqtagandan qo‘rq. 4. Saqlay desang o‘zingni, yomondan yum ko‘zingni.

145-mashq. Savollarga javob bering. So‘ng tuzgan gaplaringizni daftaringizga ko‘chirib yozing. To‘ldiruvchilarning ifodalanishiga diqqat qiling.

1. Kimga jonimiz fido? 2. Kim bilan do‘st tutinish lozim? 3. Inson nima bilan faxrlanishi mumkin? 4. Bola o‘z ota-onasini nima bilan xursand qilishi mumkin? 5. Nimadan ehtiyot bo‘lish kerak?

142-mashq. Matnni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘yib, to‘ldiruvchilarni izohlab bering.

Abu Rayhon Beruniy o‘lim to‘shagida yotganida uning huzuriga shogirdlari ... biri kiribdi. U ustozining umri tugayotganligi ... sezib, ko‘ngli ... ko‘targan bo‘libdi. Kutilmaganda Beruniy un ... bir savol berib qolibdi.

– Avval sog‘ayib oling, shu savol. . . javob. . . bilishingiz shartmi? – deb so‘rabdi, shogird ustozining qiynalishi ... istamay.

– To‘g‘ri, umrim tugayapti, ammo shu savol ... javob ... bilmasdan ketgan ... ko‘ra bilib ketganim yaxshi-da, – deb javob beribdi Beruniy.

146-mashq. «Davom ettiring» o‘yinini tashkil qiling. Tuzgan gaplaringizda to‘ldiruvchilardan foydalaning, ularni izohlang.

Namuna: 1-o‘quvchi: Suv bilan yer ko‘karadi,
2-o‘quvchi: duo bilan – er.
3-o‘quvchi: Bu gapda 2 ta to‘ldiruvchi bor: *suv bilan*, *duo bilan* (nima bilan?), ular ko‘makchi bilan hokim so‘zga bog‘lanyapti.

✓ **147-mashq. «O‘quvchi xandasi»ni o‘qing. To‘ldiruvchilarni izohlang.**

Geografiya darsida muallim Umidjondan so‘rab qoldi:
– Qani, Umidjon, ayt-chi? Bizga Oy yaqinmi, Amerikami?
– Oy! – deb javob berdi u.
– Nega Oy deb o‘ylaysan?
– Chunki Oyni ko‘rsa bo‘ladi, Amerikani esa yo‘q.

XII-Mustahkamlash:

To‘ldiruvchi deganda qanday bo‘lakni tushunasiz?

Quyida berilgan chiziqlar o‘rniga tegishli gap bo‘laklarini qo‘ying.

To‘ldiruvchi qanday hokim bo‘lakka bog‘lanadi?

To‘ldiruvchi qanday bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi?

149-mashq. *Uyga topshiriq.* **«Vatanimga xizmat qilaman» mavzusida hikoya tuzing. Unda to‘ldiruvchilar ishtirok etsin.**

I-Sana_____ **Sinf-**_____ **5** **Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Ot. Turdosh va atoqli otlar.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Ot. Turdosh va atoqli otlar haqida ilmiy tushunchalar berish

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a)salomlashilsh b)navbatchi axboroti

c)davomatni aniqlash d)uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a)o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c)mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

To'ldiruvchi deganda qanday bo'lakni tushunasiz?

Quyida berilgan chiziqlar o'rniga tegishli gap bo'laklarini qo'ying.

To'ldiruvchi qanday hokim bo'lakka bog'lanadi?

To'ldiruvchi qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi?

XI-Yangi mavzu bayoni:

Shaxs, narsa-buyum, joy nomlarini bildirib, kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'luvchi mustaqil so'zga ot deyiladi.

Otlar son, egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi. Gapda otlar bosh va ikkinchi darajali bo'lak, shuningdek, undalma vazifasida keladi.

Bir turdagi narsa-buyumning nomini bildirgan otlar turdosh ot deyiladi. Masalan: *qishloq, choynak, aka, daraxt.*

Ayrim shaxs yoki narsa-buyumga atab qo'yilgan nomlar atoqli ot deyiladi. Kishilarning ism, familiyasi, joy hamda hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar, gazeta, jurnal, kitob, tarixiy voqea kabilarning nomlari atoqli otlardir. Masalan: *Toshloq tumani, «Gulxan» jurnali, Olapar, Mustaqillik kuni.*

Atoqli otlar doimo bosh harf bilan yoziladi.

229-mashq. Gaplar tuzing, undagi otlarni topib izohlang. Tuzgan gaplaringizdagi mavjud otlarni ma'nosiga ko'ra guruhlarga bo'ling va ularning so'roqlarini aniqlang.

Namuna:

Shaxs otlari	Narsa-buyum otlari	O'rin-joy otlari

230-mashq. Gaplarni ko'chiring. Otlarning qaysi gap bo'lagi bo'lib kelayotganini aniqlab, tagiga chizing.

1. Muhammadqodir Abdullayev 1973-yilda Andijonning Jalabek mavzesida tug'ilgan. *(U. Shukurov)* 2. Oqqan daryo oqaveradi. *(Maqol)* 3. Oyijon, chindan ham shishaning ichida jin bormi? *(X. To'xtaboyev)*

***231-mashq. Berilgan otlarni ko'plik shakliga aylantiring, ular ishtirokida so'roq, istak, buyruq gaplar tuzing.**

She'r, tadbirkor, mashina, mezbon, shoir.

234-mashq. **O'qing, otlarni aniqlang. Ularning qaysilari biror shaxs yoki narsalarga atab qo'yilgan nomlar?**

Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Boburning qizi bo'lib, u 1523-yili Kobulda tug'ilgan. Onasi Dildorbegim temuriy Sulton Mahmud Mirzoning qizi bo'lgan. Otasining farmoniga ko'ra u katta onasi, ya'ni Humoyun Mirzoning onasi Mohimbegim qo'lida tarbiyalangan.

Gulbadanbegim zamonasining oqila, donishmand ayollaridan edi. Akbarshohning taklifi bilan «Humoyunnoma» nomli ajoyib va muhim tarixiy asarni yozgan. «Humoyunnoma» Bobur va Humoyun podshohlarning hayoti va sarguzashtlarining qisqacha tarixi bo'lib, «Boburnoma»ning mantiqiy davomidir. «Akbarnoma»ning muallifi Abul Fazlning yozishicha, Gulbadanbegim 1603-yilda 80 yoshida vafot etgan.

XII-Mustahkamlash:

Ot deb nimaga aytiladi?
Otlar qanday ma'nolarni bildiradi?
Otlar qaysi qo'shimchalar bilan keladi?
Otlar qanday gap bo'lagi vazifasini bajaradi?

233-mashq. *Uyga topshiriq.* **Gaplarni ko'chiring, ko'plik sonda qo'llangan otlarning gapdagi vazifasini aniqlang. Ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlarni topib izohlang.**

1. Do'stlar, bu mening eng yaqin oshnam, tanishing. 2. Bu o'tlar oftobda rosa qurigan, yaqinida gugurt chaqmang, o't ketib qolmasin.

I-Sana_____ **Sinf-**_____ **6** **Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Sifat. Sifat darajalari.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Sifat. Sifat darajalari haqida ilmiy tushunchalar berish

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar, kompyuter.

VIII-Tashkiliy qism:

a)salomlashilsh b)navbatchi axboroti

c)davomatni aniqlash d)uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a)o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c)mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

Ot deb nimaga aytiladi?
Otlar qanday ma'nolarni bildiradi?
Otlar qaysi qo'shimchalar bilan keladi?
Otlar qanday gap bo'lagi vazifasini bajaradi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

Qanday?, qanaqa? **so'roqlariga javob bo'lib, narsa-buyumning belgisini bildirgan so'zlarga sifat deyiladi. Belgi deganda rang-tus, maza-ta'm, shakl-hajm, xil-xususiyat kabilar tushuniladi.**

Sifat gapda aniqlovchi yoki kesim bo'lib keladi.

Bir belgining narsa-buyumlar orasida ortiq-kamligi jihatidan farqlanishi sifat darajasi deyiladi.

Sifatlarda uchta daraja bor: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja.

Narsa-buyumlar orasidagi belgi o'zaro taqqoslanmasa, oddiy daraja deyiladi. Masalan: ***yuksak, uzun, hushyor, kalta.***

Bir narsa-buyumdagi belgining boshqalariga nisbatan

ortiq yoki kamligi qiyosiy daraja deyiladi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga *-roq* qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi.

Masalan: ***yuksakroq, uzunroq, hushyorroq, kaltaroq.***

246-mashq. Matnni o‘qing.

Ey hurmatli qizlar! Ey izzatli qarindoshlar! Sizlarga ma’lumdirki, go‘zal xulqli qiz bola butun oila uchun ulug‘ boylik va saodatdir.

O‘qimishli, xulqini tarbiya qilgan qiz bola oltindan qimmatli, injudan qadrli bir boylikdirki, bu kabi qizlarning ismlari eng yiroq qarindosh-u tanishlarga qadar yetadi.

248-mashq. Sifatlarni ular bog‘lanib kelgan so‘zlar bilan ko‘chiring.

Hotamning tim qora, uchqur oti bor ekan. Ana shu otning dong‘i Rum podshohining qulog‘iga borib yetibdi. Podshoh bilimli, dono bir odamga o‘n kishini qo‘shib, Hotamning uyiga yuboribdi.

250-mashq. Oddiy darajadagi sifatlarni qiyosiy yoki orttirma darajaga aylantiring.

1. Go‘zal bir yigit eshikni qoqdi. *(Abdulla Qahhor)* 2. Ayiq qahri qistab, g‘ijinib qoldi, Panjasiga nogoh bir xarsang oldi. *(Mirtemir)* 3. Tarbiyachi o‘rta va katta guruh bolalariga doston haqida so‘ylardi.

251-mashq. Gaplarni o‘qing. Sifatlarning darajasini o‘zgartiring. Bu gap mazmuniga qanday ta’sir qilayotganini tushuntiring.

1. G‘azal nihoyatda ta’sirli. Ayniqsa, uch-to‘rt bolaning ovozi juda yoqimli, ohangdor. *(Oybek)* 2. Biz kirgan xona dadam ishlaydigan hujradan ham tor, qorong‘iroq ekan. *(Hakim Nazir)* 3. So‘ng sirkka o‘tib, eng uchqur otlardan birini tanlaysan, yo‘lga ravona bo‘lasan. *(X. To‘xtaboyev)*

XII-Mustahkamlash:

1. Sifat deb qanday so‘zlarga aytiladi va ular qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
2. Belgi deganda qanday ma’nolar tushuniladi? Har biriga misol keltiring.
3. Sifatlar, asosan, qaysi gap bo‘lagi vazifasida keladi?

252-mashq. *Uyga topshiriq.* **Sifat darajalarini aniqlab, namunadagidek yozing.**

Namuna: Ayolning cho‘zinchoqroq yuzida hadik paydo bo‘ldi.
–Cho‘zinchoqroq *(qiyosiy daraja)*

1. Baykal – dunyodagi eng chuqur ko‘l. 2. Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. *(Maqol)* 3. Hayotda halol, to‘g‘ri so‘z bo‘lish kerak. *(Rauf Tolib)* 4. Qo‘rqoq oldin musht ko‘taradi. *(Maqol)* 5. Oyning ipak nurlari dalalarga quyilgay. *(Habib Rahmat)*

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **7 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Son. Sonlarning yozilishi.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Son. Sonlarning yozilishi haqida ilmiy tushunchalar berish

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a)salomlashilsh b)navbatchi axboroti

c)davomatni aniqlash d)uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a)o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c)mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Sifat deb qanday so'zlarga aytiladi va ular qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
2. Belgi deganda qanday ma'nolar tushuniladi? Har biriga misol keltiring.
3. Sifatlar, asosan, qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

Qancha?, necha?, nechanchi? **so'roqlariga javob bo'lib, narsalarning son-sanog'i va tartibini bildirgan so'zlarga son deyiladi.**

☞ **Sonlar ikkiga bo'linadi: 1) miqdor sonlar, 2) tartib sonlar.**

Qancha?, necha? **so'roqlariga javob bo'lgan sonlar miqdor sonlar,** ***nechanchi?*** **so'rog'iga javob bo'lgan sonlar tartib sonlar hisoblanadi.**

☞ **Son gapda otga bog'lansa, aniqlovchi, fe'lga bog'lansa hol, gapning oxirida kelsa kesim vazifasini bajaradi. Masalan:** ***Sinfimizda yigirma besh o'quvchi bor. U olmadan beshta oldi. O'nning yarmi – besh.***

Ikki, olti, yetti **sonlariga jamlikni bildiruvchi** ***-ov, -ala*** **qo'shimchalari qo'shilganda, o'zak oxiridagi** ***i*** **unlisi tushib qoladi:** ***Ikkala, oltov, yettov.***

Tartib sonlar raqam bilan yozilganda *-nchi, -inchi* qo‘shimchalari o‘rniga chiziqcha qo‘yiladi: *2002-yil, 22-dekabr, 5-sinf, 3-qavat.*

Tartib sonlar rim raqamlari bilan yozilganda bu qo‘shimchalar o‘rniga chiziqcha qo‘yilmaydi: *IX sinf, XXI asr.*

***Bir* so‘ziga *-ta* qo‘shimchasi qo‘shilsa, *bitta* deb aytiladi va yoziladi.**

255-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Sonlarning gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga chizing.

1. Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi. *(Topishmoq)* 2. Mening kitoblarim hammasi bo‘lib yettita. 3. Opam bizga uzgan olmalaridan to‘rttadan berdi. 4. Bir daraxtda o‘n ikki shox, har shoxida o‘ttiz yaproq, yaprog‘ining bir yog‘i qora, bir yog‘i oq. *(Topishmoq)*

257-mashq. **Tartib sonlarni toping, ularni raqamlar bilan yozing.**

1. Birinchi iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni. 2. Alisher Navoiy bir ming to‘rt yuz qirq birinchi yil to‘qqizinchi fevralda Hirot shahrida tug‘ildi. 3. Chol bilan kampir uch nafar qizlari bilan yashar ekanlar. *(Ertakdan)*

***258-mashq. Tez aytishni aytib ko‘ring. O‘zingiz ham sonlar ishtirok etgan tez aytishlarni topib, o‘rtoqlaringiz bilan musobaqa o‘ynang.**

Tyan-shan tog‘ining tagida Toshtemir tog‘aning traktori to‘qson tonna temirni tortolmay tirillab turibdi.

XII-Mustahkamlash:

1. Son deb qanday so‘zlarga aytiladi?
2. Miqdor va tartib sonlarga misollar keltiring va ularning o‘zaro farqini ayting.

259-mashq. *Uyga topshiriq.* **Sonlarga qavs ichidagi qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring. Tartib sonlarni raqamlar bilan yozing.**

1. Zulfiqorovning xotini bir (ta) qiyiqchada uch-to‘rt (ta) anor olib keldi. *(Abdulla Qahhor)* 2. Pahlavonning ikki (nchi) kun madori qolmadi. *(Navoiy)* 3. Hilola qirq (inchi) uy, yigirma (nchi) xonadonda yashaydi. 4. Ota-onasining ikki (ala)si, yoxud bir (ta)si keksayib qolganda ularni rozi qilmagan kishi ikki dunyoda xor bo‘ladi. *(Hadis)*

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **8** **Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Olmosh.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Olmosh haqida ilmiy tushunchalar berish

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Son deb qanday so'zlarga aytiladi?
2. Miqdor va tartib sonlarga misollar keltiring va ularning o'zaro farqini ayting.

XI-Yangi mavzu bayoni :

Topshiriq. Quyida berilgan gapda ***u*** so'zi qaysi so'z o'rnida almashinib kelayotganini ayting.

Uyga qaytayotganimizda u mendan xafa bo'ldi. *(N. Fozilov)*

Ot, sifat, son va boshqa so'zlar o'rnida qo'llanib, ularga ishora qiluvchi so'zlar olmosh hisoblanadi.

☞ **Olmoshlar qaysi so'z o'rnida qo'llansa, o'sha so'zning so'rog'iga javob bo'ladi.**

Men, sen **kishilik olmoshlariga qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari hamda *-niki* qo'shimchasi qo'shilsa, bir *n* undoshi tushib qoladi: *Men+ning–mening, sen+niki–seniki.***

U, bu, shu, o'sha **olmoshlariga jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari hamda *-ga, -dek, -day* qo'shimchalari qo'shilsa, *n* undoshi orttiriladi: *unga, shunda, bunda, shunday.***

***260-mashq. Gaplardan avval ot, keyin sifat, so‘ng son o‘rnida qo‘llangan olmoshlarni aniqlang.**

1. U o‘ymakor eshikni qiya ochib ichkari kirdi. *(X. Sultonov)* 2. O‘rtog‘ing yugurishda birinchi ekan, sen-chi, nechanchi o‘rindasan? 3. Cholning chapdast, chaqqon o‘g‘li bor ekan, mening ham shunday farzandim bo‘lsa edi. *(Ertakdan)* 4. Men ham shunday o‘ydaman, fikr-u yodim undadir, gar o‘zim har joydaman. *(Yo‘ldosh Sulaymon)* 5. Bu ish uchun senga qancha vaqt kerak?

261-mashq. Nuqtalar o‘rniga oldingi gap mazmunidan kelib chiqib, mos keladigan olmoshlarni qo‘ying. Bu olmoshlar qaysi so‘z turkumi o‘rnida qo‘llanganini aniqlang.

Namuna: Uning beshta kitobi bor. Yana... bo‘lsa o‘nta bo‘ladi.
Uning beshta kitobi bor. Yana shuncha bo‘lsa o‘nta bo‘ladi.

1. Men, Bahodir, Elbek, Hilola bog‘ga bordik. ... u yerdan kech qaytdik. 2. Uning ko‘ylagi yashil ekan. ... rang menga ham yoqadi. 3. Ziyoda bilan «Durdona» – yaqin dugona. ... – beshinchi sinf o‘quvchilari.

262-mashq. Berilgan so‘roq olmoshlarini boshqa so‘zlarga almashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing. So‘z turkumini aniqlang.

Namuna: *Kim? – Tikuvchi. Opam atelyeda tikuvchi bo‘lib ishlaydi.*
Kim?, qanday?, nechanchi?, nima?, nechta?, qancha?, qaysi?

XII-Mustahkamlash:

1. ***Qancha, necha, o‘shancha*** olmoshlari qanday so‘zlar o‘rnida qo‘llanadi?
2. ***O‘sha, u, men, sen*** olmoshlari qanday so‘zlar o‘rnida qo‘llanadi?
3. ***Shunday, o‘shanday*** olmoshlari ishtirokida gap tuzing. Bu olmoshlarning qaysi so‘z o‘rnida qo‘llanayotganini ayting.

263-mashq. *Uyga topshiriq.* **Gaplarni ko‘chiring. Olmoshlarni topib, ularning yozilishini tushuntiring.**

1. Meniki va seniki shu aziz tuproq, ko‘z qorachig‘iday asraylik o‘rtoq! 2. Mening ikki onam bor, ikkisi ham mehribon. *(Uyg‘un)* 3. Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda, bunchalar muhtaram bo‘lmasdi ayol. *(A. Oripov)* 4. Otang seni ko‘rmadi, chog‘i. 5. Sen qancha kitob olgan bo‘lsang, men ham o‘shancha miqdorda olib keldim.

I-Sana_____ **Sinf-**_____ **9** **Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Asos va qo'shimchalar.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Asos va qo'shimchalar haqida ilmiy tushunchalar berish

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. ***Qancha, necha, o'shancha*** olmoshlari qanday so'zlar o'rnida qo'llanadi?
2. ***O'sha, u, men, sen*** olmoshlari qanday so'zlar o'rnida qo'llanadi?
3. ***Shunday, o'shanday*** olmoshlari ishtirokida gap tuzing. Bu olmoshlarning qaysi so'z o'rnida qo'llanayotganini ayting.

XI-

Yangi mavzu bayoni :

Topshiriq. Berilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Ularning qaysilarini mustaqil qo'llash mumkin, qaysilarini esa mustaqil qo'llash mumkin emasligini aniqlang.

Mevazor, mevali, mevaning, mevalarni.

BILIB OLING. **So'zning asosiy ma'nosini ifodalab, mustaqil qo'llana oladigan qismi *asos* deyiladi.**

Mustaqil qo'llana olmaydigan, asosga qo'shilib, unga yangi yoki qo'shimcha ma'no yuklaydigan, shuningdek, so'zlarni bog'lashga xizmat qiladigan qismga *qo'shimcha* deyiladi.

46-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Ularning qaysi biri asos, qaysinisi qo'shimcha ekanini ayting.

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **10 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Shakl yasovchi qo'shimchalar va ularni tasnifi.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Shakl yasovchi qo'shimchalar va ularni tasnifi haqida ilmiy tushunchalar berish

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. So'zning qanday qismi asos deyiladi?
2. Qo'shimcha nima?
3. Asos va qo'shimchaning farqi nimada?

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. So'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Qo'shimchalarning asos ma'nosiga ta'sir qilayotgani yoki qilmayotganini ayting.

Tohirjon, Halimjon, qalamim, daftarlar, rasmga, kitobcha.

2-topshiriq. *Suvchi* va *suvga* so'zlaridagi qo'shimchalarning vazifalaridagi farqni izohlang.

BILIB OLING. **Asosga qo'shilib, uning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklash yoki o'zi qo'shilayotgan so'zni boshqa so'zga bog'lash vazifasini bajaruvchi qo'shimchalarga *shakl yasovchi qo'shimchalar* deyiladi.**

63-mashq. Berilgan matndan shakl yasovchi qo'shimchalarni toping.

Bugungi kunda madaniy turmushimizni qog'ozsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uzoq o'tmishda esa qog'oz bo'lmagan. Uning

o‘rniga o‘simlik poyalaridan, hayvon terilaridan foydalanilgan. (*«Vatan tuyg‘usi»*)

ESDA TUTING. **Shakl yasovchi qo‘shimchalar vazifasiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: a) lug‘aviy shakl yasovchilar; b) sintaktik shakl yasovchilar.**

BILIB OLING. **Asosga qo‘shilib, uning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklovchi qo‘shimchalar *lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar* deyiladi. Ularga ko‘plik, kichraytirish-erkalash, sifat darajalari va boshqa qo‘shimchalar kiradi.**

O‘zi qo‘shilayotgan so‘zni boshqasiga bog‘lash vazifasini bajaruvchi qo‘shimchalar *sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar* yoki *munosabat shakllari* deyiladi. Ularga egalik, kelishik, shaxs-son va boshqa qo‘shimchalar kiradi.

64-mashq. Berilgan gaplarda lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarni ajratib, ularning qanday ma’nodagi shakl yasayotganligini tushuntiring.

1. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroyli. (*Maqol*) 2. Jannat onalar oyog‘i ostidadir. (*Hadisdan*) 3. Kunlar isib, daraxtlar kurtak yozib, qushlar, qurt-qumursqalar harakatga kelib qoldi. (*Abdulla Qodiriy*) 4. Mashina yigitcha turgan yerga kelib to‘xtadi. (*Tohir Malik*)

65-mashq. Berilgan gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajrating. Qo‘shimchalarning turlarini tepasiga yozing.

1. **Tepaliklarda** qor ostidan **zanglagan** tunuka va temir, qora va sariq g‘isht, beton **parchalari** chiqib turar edi. (*Abdulla*

XII-Mustahkamlash:

1. Shakl yasovchi qo‘shimchalar deb qanday qo‘shimchalarga aytiladi?
2. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarga misollar ayting.
3. Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar qaysilar?

68-mashq. ***Uyga vazifa.*** *-(i)mtir, -tadan, -guncha, -lar* qo‘shimchalari yordamida so‘z shakllari yasang va ularni gap ichida keltiring. Shakl yasovchi qo‘shimchalarga tavsif bering.

Namuna: *Bolta tushguncha, kunda dam olar.*

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **11 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: So'z tarkibida tartib

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – So'z tarkibida tartib haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum",

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Shakl yasovchi qo'shimchalar deb qanday qo'shimchalarga aytiladi?
2. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarga misollar ayting.
3. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar qaysilar?

XI-Yangi mavzu bayoni :

BILIB OLING. **So'zning ma'noli qismlari ma'lum tartibga ega. Ularning joylashuvi quyidagicha bo'ladi: asos + so'z yasovchi + lug'aviy shakl yasovchi + sintaktik shakl yasovchi. Ularni shartli belgilar orqali shunday ko'rsatish mumkin:**

$\overset{\frown}{\text{asos}}$ + so'z $\overset{\wedge}{\text{yasovchi}}$ + lug'aviy shakl yasovchi + + sintaktik shakl yasovchi.

Topshiriq. Berilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Ularni asos, so'z yasovchi, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi turlarga bo'ling.

Yigitcha, siyohdoni, qalamcha, mashinasozlik, ipakchilikdan, bilimdonlar, zakovatli, kitobim.

69-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan qo‘shimchalardan mosini tartib bilan joylashtiring.

paxta... (-chilik, -la, -lar, -ga, -ka), terim... (-chi, -lar, -ga, -don, -paz), do‘st... (-lik, -lar, -larcha), bog‘... (-don, -bon, -paz, -ga, -da)

70-mashq. Berilgan gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajrating.

1. **Boyliging** ko‘p bo‘lmasa ham, **biliming** ko‘p bo‘lsin. (*Maqol*) 2. Ko‘p **o‘qigan** ko‘p **biladi**. (*Maqol*) 3. **Yaxshilik insonning umrini** ziyoda qiladi. (*Hadisdan*) 4. Sizni eshitsak, aqlimizga aql qo‘shiladi, otaxon, **so‘ylayvering**. (*Said Ahmad*)

71-mashq. Berilgan so‘zlarning tarkibini aniqlang.

Namuna: *ish + chi + lar + imiz.*

Oshpazlarga, o‘quvchilarning, maktabning, sinfimizni, kitobxonlardan, kutubxonaga.

XII-Mustahkamlash:

1. So‘z yasovchi qo‘shimchalar asos qismning qaysi tomoniga qo‘shiladi?
2. Qo‘shimchalarning qaysi turi asosga birinchi bo‘lib qo‘shiladi?
3. Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchadan oldin kelishi mumkinmi?

72-mashq. ***Uyga vazifa.*** «Konstitutsiya — baxtimiz qomusi» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan so‘zlarning tarkibidagi qo‘shimchalar tartibiga e’tibor bering.

I-Sana_____ **Sinf-**_____ **12 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: To'plam va tasnif.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – To'plam va tasnif haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum",

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Shakl yasovchi qo'shimchalar deb qanday qo'shimchalarga aytiladi?
2. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarga misollar ayting.
3. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar qaysilar?

XI-Yangi mavzu bayoni :

BILIB OLING. **O'rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig'indisi *to'plam* deyiladi. To'plamni o'xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlarga bo'lish *tasnif* hisoblanadi.**







73-mashq. Matnni o‘qing. Meva nomi ostida birlashadigan so‘zlarni ko‘chirib yozing. Ularning farqli belgilariga diqqat qiling.

Havo issiq va shabadasiz edi. O‘riklar g‘arq pishgan. Yo‘llarga to‘kilib, oftobda oltinlanib yotadi. Oldinpishar jonoqi olmalar olovday yonadi. Hali ... shaftolilarning shoxlari yerda. Qizilsultonlar yoqutday chaqnaydi. O‘ktam mevalarni saralaydi, hidlaydi, biroq yegisi kelmaydi, ko‘zi to‘q. (*Oybek*)

74-mashq. Matnni ko‘chirib yozing. Yana qanday bolalarning o‘yinlarini bilasiz? Ularning o‘xshash va farqli tomonlari haqida bahs yuriting.

Mahallamizning bir tomoni Tikonlimozor, bir tomoni Qo‘rg‘ontagi. Uzun ko‘chaning o‘ng, chap tomonidagi pastqam, tor ko‘chalarda o‘g‘il va qiz bolalar to‘planib, har xil o‘yinlar o‘ynaymiz. «Kurash», «Botmon-botmon», «Oq terakmi, ko‘k terak?», «Qushim boshi», «Mindi-mindi», «Bekinmachoq» degan o‘yinlarimiz bor. (*G‘afur G‘ulom*)

75-mashq. Matnni o‘qing. Qovun nomi ostida birlashadigan so‘zlarga diqqat qiling. Ularning o‘xshash va farqli jihatlarini toping.

Qovun navlarining atalish usullari xilma-xil. Qovun navlariga nom berishda tashqi ko‘rinishi, rangi, ta’mi, to‘rlarining tuzilishi, pishish muddati kabi belgilarga alohida e’tibor beriladi. Gulobi, obinovvot, shakarpalak, asadi, bo‘rikalla, ko‘kcha, qirqma, amiri, umrboqi kabi qovun nomlari til boyligimizning bir qismi sanaladi. Xullas, har bir qovun nomining o‘z tarixi va ma’nosi bor. (*M. Safarov*)

76-mashq. Quyidagi so‘zlarni guruhlarga ajrating. Ularni guruhlash imkonini beradigan belgilarni aniqlang. Har bir guruhga umumiy nom bering.

Tepalik, chumchuq, bug‘doy, arpa, tog‘, qir, musicha, qaldirg‘och, jarlik, adir, olaqanot, cho‘qqi, g‘or, tosh, zag‘izg‘on, sholi, makkajo‘xori.

XII-Mustahkamlash:

1. To‘plam nima?
2. Tasnif nima?
3. Tasnifda qanday belgilarga tayaniladi?
4. O‘quv qurollarini sanang. Ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni ayting.

77-mashq. ***Uyga vazifa.*** «O‘zbekistonning qazilma boyliklari» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan so‘zlarning guruhlanishiga e’tibor qiling.

I-Sana_____ **Sinf-**_____ **13 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Fe'l.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Fe'l haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baholash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. To'plam nima?
2. Tasnif nima?
3. Tasnifda qanday belgilarga tayaniladi?
4. O'quv qurollarini sanang. Ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni ayting.

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Berilgan so'zlarga *-ma* qo'shimchasini qo'shing. So'zlarning qanday so'roqqa javob bo'lishi va *-ma* qo'shimchasining ma'nosini aniqlang.

O'qi , keldi , qiziqadi.

2-topshiriq. *Nima qildi?* so'rog'iga javob bo'luvchi to'rtta so'z toping. Ularni tarkibiy qismlarga ajrating.

BILIB OLING. ***Nima qilmoq?, nima bo'lmoq?*** **so'roqlariga javob bo'lib, shaxs yoki narsalarning harakat, holatini ifodalagan so'z turkumi *fe'l* deyiladi.**

ESDA SAQLANG. **Fe'llardan anglashilgan harakat va holat ma'lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi.**

BILIB OLING. Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga bo'linadi.

Shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar *harakat fe'llari* hisoblanadi. Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar esa *holat fe'llari* sanaladi.

82-mashq. Berilgan fe'llarni harakat yoki holatni bildirishiga ko'ra ikki guruhga: harakat fe'llariga va holat fe'llariga ajrating.

Qizardi, yashardi, chopdi, sug'ordi, gapirdi, qichqirdi, to'xtadi, tashladi, yugurdi, qimirladi, topdi.

83-mashq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'ying, fe'llarning ma'nosiga va grammatik shakliga e'tibor bering.

— Yigitcha, familiyangiz nima?

— «Iskandarov» deb yoz..., aka.

Javlonbek uni yoz... qo'yish uchun so'ramagandi, faqat familiyasini atab gaplashish uchun so'ragan... U bo'lsa, «Iskandarov deb yozing, aka», deydi-ya.

— Iskandarov, siz, axir, traktorning tilini bilmay...-ku? Hatto uning qanday mashina ekanini ham ko'rmagan bo'lsangiz!..

— Bugun bilma..., ko'rmagan bo'lsam, endi bila..., ko'ra..., o'rgana..., — dedi yigit qat'iy. — Hali o'zingiz aytdingiz-ku, avvalo, shogird tusha..., keyin o'rgana..., deb. (*N. Fozilov*)

84-mashq. She'rni o'qing. Gul bilan bog'liq harakatlarga diqqat qiling. O'zingiz ham shunga o'xshash misollar toping.

Gul bag'rini nasim tildi — to'kildi,
Saboga hikoyat qildi — to'kildi.
Falak ishiga boq: bir haftada gul
Chiqdi, g'unchaladi, kuldi — to'kildi...

87-mashq. Ikki guruhga bo'lining. Birinchi guruhdagilar harakat, ikkinchi guruhdagilar holat fe'llarini yozsin.

Tasvirlamoq, kuylamoq, taralmoq, qotmoq, o'ylamoq, eshitilmoq, porlamoq, yiqilmoq, jimirlamoq, unmoq, o'smoq, fikrlamoq, ikkilanmoq, qaytarmoq.

XII-

Mustahkamlash:

1. Fe'l deb nimaga aytiladi?
2. Fe'llar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Harakat va holatni bildiruvchi fe'llarga misollar keltiring.

90-mashq. ***Uyga vazifa.*** «Mehnat baxt keltiradi» mavzusida matn tuzing va unda ishlatilgan fe'llarni izohlang.

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **14 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Sifatdosh.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Sifatdosh haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustaxkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Fe'l deb nimaga aytiladi?
2. Fe'llar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Harakat va holatni bildiruvchi fe'llarga misollar keltiring.

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Chap va o'ng qatorlarda berilgan gaplar tarkibidagi ajratilgan so'zlarning qaysi so'zlarga bog'langanini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlang.

Navoiy **ixchamgina** xonada tanho ishlar edi. (*Oybek*)	**Ishlayotgan** xonamiz keng va shinam edi.

BILIB OLING. Fe'lning sifatga xoslangan shakli *sifatdosh* deyiladi. Sifatdoshlar fe'l asoslariga *-gan (-kan, -qan), -ydigan (-adigan), -(a)yotgan, -(a)r* qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi.

Sifatdoshlar shaxs va narsalarning belgisini bildirishi bilan sifatga o'xshaydi. Sifatlar shaxs va narsaning turg'un, barqaror belgisini ifodalasa, sifatdoshlar o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydi. Solishtiring: *katta* (sifat) *daryo, oqar* (sifatdosh) *daryo.*

BILIB OLING. Sifatdoshlar fe'l shakli bo'lganligi uchun fe'lga xos bo'lgan zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat ma'nolarini ifodalaydi.

136-mashq. Berilgan fe'llarni tarkibiy qismlarga ajrating. Qachon sifatdoshning *-gan, -kan, -qan* shakllari qo'shilishiga e'tibor bering.

chiqqan, kelgan, tikkan, olgan, uqqan, chekkan, yurgan, oqqan, kechikkan, taqqan.

137-mashq. Berilgan sifatdoshlarning aytilishi va yozilishiga e'tibor bering.

Eshit — eshitgan, ayt — aytgan, o's — o'sgan, ek — ekkan, buk — bukkan, qayt — qaytgan, to's — to'sgan.

138-mashq. Nuqtalar o'rniga sifatdosh yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring. Sifatdoshlarning yasalishiga diqqat qiling.

1. Bilmaslik ayb emas, bilma...ini bo'yniga olmaslik ayb. 2. O'z o'rnida aytilma... so'z hech kim yo'q yerda chalin... kuyga o'xshaydi. 3. Arslondan qo'rq...dan ko'ra o'z nafsidan qo'rq... foydaliroq. 4. Ilm insonni izzat va sharafga yetkaz... vositadir. 5. Boshqalar qalbiga yaxshilik urug'ini ek... odam chinakam insondir.

139-mashq. Sifatdoshlarni toping. Ulardagi yasovchi qo'shimchalarni sifatdosh yasovchi boshqa qo'shimchalarga almashtirish mumkinmi? Shu haqda bahs uyushtiring.

Men go'yo tabiat bilan qo'shilib ketgandekman. Uning bir qismi mana shu daryo, qush, o'tloq, qamishzor, chirillayotgan chigirtka. Anovi vaqillayotgan qurbaqa, huv narigi yoqda hurayotgan it, shamolda shildirayotgan qamish yaproqlari. O'tloqdagi chirsillayotgan olov, chaylaga to'shalgan o't-o'lanlarning shirin, yoqimli, toza isi bilan aralash-quralash bo'lib ketgandekman.

1. Sifatdosh deb nimaga aytiladi?
2. Sifatdosh yasovchi qo'shimchalarni sanang.
3. **-gan, -kan, -qan** qo'shimchalarining qanday fe'l asoslaridan so'ng qo'llanishini izohlang.

140-mashq. ***Uyga vazifa.*** «Mehr-muruvvat — inson bezagi» mavzusida matn tuzing, unda sifatdoshlardan foydalaning.

I-Sana_____ II- Sinf-_____ 15 Tekshirdim_____

III-Darsning mavzusi: Ravishdosh.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Ravishdosh haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda

ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Sifatdosh deb nimaga aytiladi?
2. Sifatdosh yasovchi qo'shimchalarni sanang.
3. **-gan, -kan, -qan** qo'shimchalarining qanday fe'l asoslaridan so'ng qo'llanishini izohlang.

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Quyidagi gaplar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan fe'llarni tarkibiy qismlarga ajrating.

1. Sochlarimni **silab-siypalab**,
   Baxting bor deb esadi yellar. (*Hamid Olimjon*)
2. Bolta **tushguncha**, to'nka dam olar. (*Maqol*)
3. Tong **otgach**, yo'lga tushdik.

2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan fe'llarning qaysi so'zlar bilan bog'lanib kelayotganini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlang.

BILIB OLING. **Fe'lning ravishga xoslangan shakli *ravishdosh* deyiladi.**

Ravishdoshlar harakatning belgisini bildirishi bilan ravishga o'xshaydi. Ravishdosh ham ravish kabi fe'lga bog'lanib, uning belgisini bildiradi. Solishtiring: *piyoda* (ravish) *keldi*, *shoshilib* (ravishdosh) *keldi*.

BILIB OLING. **Ravishdoshning *-(i)b, -a//-y* shakllari ko'proq harakatning holatini, ba'zan payt, sababini, *-gancha (-kancha, -qancha)* shakli holatini, *-gach, (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha)* shakllari paytini, *-gani (-kani, -qani, -gali)* shakli maqsadini anglatadi.**

2-topshiriq. Ajratib ko‘rsatilgan fe’llarning qaysi so‘zlar bilan bog‘lanib kelayotganini va qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlang.

... Boysariboy o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eli bilan ko‘chib borgach, Ko‘kqamish ko‘li atrofida mollarini semirtirib, yaylovda yayrab yotadi. O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining boyvachchalari bilan yig‘ilib, bir yerga jam bo‘lib, bir baxmal o‘tovni tikib, shu o‘tovning ichida hamma boyvachchalar bilan qimiz ichib, o‘z kayf-u safosi bilan o‘tirar edi. (*«Alpomish»dan*)

152-mashq. Quyida berilgan gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qanday so‘roqqa javob bo‘layotgani va qaysi so‘z turkumiga mansubligini ayting. Imlosini tushuntiring.

Shohjahon hazin kayfiyatga **berilgach**, ko‘ngli qorong‘uligini na o‘yin-kulgu, na sayr-sayohat yorita olardi. Malika Mumtozmahal shohning ma’yusligini **sezgach**, uni xushnud etish uchun g‘azallar **o‘qib**, xayollarini yaxshilikka, ezgu ishlarga undardi. Malika dunyodan **o‘tgach**, unga **bag‘ishlab** shoh «Tojmahal»ni qurdirdi. Ammo Shohjahonni xavotirga solgan hodisalar **ro‘y berib**, o‘z o‘g‘li Avrangzeb otaga qarshi isyon ko‘tardi. Taxtni **egallagach**, otasini umrbod qamoqqa, erksizlikka mahkum etdi.

154-mashq. Quyida berilgan fe’l asoslariga *-gach (-kach, qach), -guncha (-kuncha, -quncha), -gani (-kani, -qani)* qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring. Talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Ko‘r, bor, ket, yig‘, chaq, taq, tik.

Namuna: *ko‘rgach, ko‘rguncha, ko‘rgani.*

XII-Mustahkamlash:

1. Ravishdosh deb nimaga aytiladi?
2. Ravishdosh qaysi qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
3. Ravishdosh gapda qanday gap bo‘lagi vazifalarida keladi?

153-mashq. ***Uyga vazifa.*** «Mening orzum» mavzusida bog‘lanishli matn tuzing. Unda ishtirok etgan fe’llarning qanday shaklda ekanligini ayting.

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **16 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Ko'makchi fe'llar.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Ko'makchi fe'llar haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baholash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Ravishdosh deb nimaga aytiladi?
2. Ravishdosh qaysi qo'shimchalar yordamida yasaladi?
3. Ravishdosh gapda qanday gap bo'lagi vazifalarida keladi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Berilgan fe'llarni bir-biriga solishtiring, ma'no farqini ayting.

O'qimoq — o'qiy boshlamoq, o'qiy olmoq, o'qib chiqmoq, o'qib tugatmoq, o'qib yurmoq, o'qib turmoq, o'qib yubormoq, o'qib tashlamoq.

BILIB OLING. **Ravishdoshning *-a//-y, -(i)b* shakllariga qo'shilib, o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotgan, asosdan anglashilgan harakatning bosqichlari (boshlanishi, davom etishi, tugallanishi) va tarzi (tezligi, imkoniyati)ni bildiruvchi *boshlamoq, olmoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq* singari fe'llar *ko'makchi fe'llar* hisoblanadi.**

ESDA SAQLANG. **Ko'makchi fe'lni qabul qiluvchi ravishdosh yetakchi fe'l hisoblanadi. Ko'makchi fe'l faqat**

yetakchi fe'l bilan birgalikda qo'llanadi. Ana shu xususiyati bilan mustaqil qo'llanuvchi *olmoq* (*xatni olmoq*), *tugatmoq* (*o'qishni tugatmoq*), *turmoq* (*o'rnidan turmoq*), *tashlamoq* (*qog'oz tashlamoq*) fe'llaridan farq qiladi.

161-mashq. Matnni o'qing. Ko'makchi fe'llarni topib, ular bildirgan ma'nolarni aniqlang. Ko'makchi fe'llar ishtirokida yangi so'z qo'shilmalarini hosil qiling.

Chor atrofi baland devor bilan o'ralgan tor joyda uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar to'lib-toshib yotibdi. Eng qizig'i, devor boshida o'qtin-o'qtin ko'rinish beradigan babaq xo'roz. U o'ziga hayratomuz tikilib turgan Oqbo'yinga boshini u yon-bu yon burib qarab qo'yadi-da, qanotlarini tap-tap qoqqanicha, birdan qichqirib qoladiki, sho'rlik Oqto'sh qochaman deb umbaloq oshib tushadi.

Gohida shu ish ustiga uy egasining o'rtancha o'g'li Rasul kelib qoladi... Rasul uni yerdan ko'tarib bag'riga bosadi, silab-siypaydi. (*N. Norqobilov*)

162-mashq. Gaplar tarkibidagi fe'llarni ikki guruhga bo'lib ko'chiring. Birinchi guruhga sof fe'llarni, ikkinchi guruhga ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarini kiriting.

1. Men bu yerga qalamcha suqqanimda, «Nimaga boshqalar bosh qo'shmaydi?» deb o'ylamaganman. Ekkim kelgan, ekkanman. (*N. Norqobilov*) 2. Ertasi kun bo'yi Esonboyni xavotir aralash kutdim. Daragi bo'lmadi. Ishdan kelgach, nari-beri tamaddi qilib, uyiga o'tib bordim. (*X. Sultonov*) 3. Savri xola indamadi. Bitta-bitta qadam bosib, uyi tomon yurib ketdi. (*O'. Umarbekov*) 4. Qo'qonga nonushta mahalida kirib keldik.

163-mashq. Quyidagi fe'llar ishtirokida ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari tuzing, ular ishtirokida gaplar hosil qiling va yozing.

Ko'rmoq, burmoq, solmoq, qaramoq, qo'ymoq, yoqmoq, kelmoq, yubormoq, tashlamoq.

XII-Mustahkamlash: O'quvchilarni baholash.

1. Ko'makchi fe'llar deb nimaga aytiladi?
2. Qanday fe'llar yetakchi fe'l sanaladi?
3. Ko'makchi fe'l qanday shakldagi yetakchi fe'llarga qo'shiladi?

165-mashq. ***Uyga vazifa.*** «Erta turish — salomatlik garovi» mavzusida matn tuzing va unda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridan foydalaning.

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **17 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Fe'llarning tuzilishuga ko'ra turlari.

IV-Darsning maqsadi

Ta'limiy maqsad – Fe'llarning tuzilishuga ko'ra turlari haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baholash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Ko'makchi fe'llar deb nimaga aytiladi?
2. Qanday fe'llar yetakchi fe'l sanaladi?
3. Ko'makchi fe'l qanday shakldagi yetakchi fe'llarga qo'shiladi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Berilgan fe'llarni solishtiring, farqlarini ayting.

Topib olmoq, toshmoq, oqmoq, uxlab qolmoq, bayon qilmoq, yurmoq, sakramoq, tortib olmoq.

2-topshiriq. *Tasdiqlamoq — tasdiq etmoq, ko'maklashmoq — ko'mak bermoq* fe'llarini qiyoslab, farqli tomonlarini toping.

BILIB OLING. **Fe'llar tuzilishiga ko'ra to'rt xil bo'ladi:**

a) sodda fe'llar; b) qo'shma fe'llar; d) juft fe'llar; e) takroriy fe'llar.

Sodda fe'llar bir asosdan tarkib topadi. Sodda tub fe'llar asos holatida ish-harakat va holatni anglatadi. Masalan: ***qurmoq, yurmoq, ketmoq.***

Sodda yasama fe'llar so'z yasovchi qo'shimchalar

yordamida boshqa so‘z turkumlaridan yasaladi: ***shod — shodlanmoq, yangi — yangilamoq, gap — gapirmoq, guv — guvullamoq, tez — tezlamoq.***

184-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Sodda fe’llarni tub va yasama fe’llarga ajrating.

Kunlardan bir kuni Durroj: «Men tuzoqqa tushdim!» — deb sherni aldadi. Sher o‘zining aldanganini bilib: «Meni aldamagil, yolg‘onchidan el nafratlanadi», desa ham, Durroj quloq solmas, yolg‘onchilikni, aldashni qo‘ymas edi. Bir kuni Durroj tuzoqqa ilindi va: «Meni tutib oldilar!» deb qattiq qichqirdi. Sher: «Bu gal ham Durroj meni aldayapti», deb qutqarishga bormadi. (*Alisher Navoiy*)

Ko‘rdingizmi, bolalar! Durroj yolg‘on so‘zlagani, noto‘g‘ri gapirgani uchun tuzoqqa tushdi.

185-mashq. Quyidagi fe’llarni ikki guruhga bo‘lib ko‘chiring. Birinchi guruhga sodda tub, ikkinchi guruhga sodda yasama fe’llarni kiriting.

Bilmoq, eslamoq, qutlamoq, ta’sirlanmoq, qo‘ymoq, yo‘llamoq, suvsiramoq, tashlanmoq, g‘ichirlamoq, achchiqlanmoq.

186-mashq. Sodda yasama fe’llarni aniqlang, ularning yasalishini tushuntiring.

1. Ko‘klam. Butun mavjudot qaytadan yasharmoqda. (*Mirtemir*) 2. Xadichaning uzunchoq sarg‘ish yuzi qizardi. (*O‘. Hoshimov*) 3. Usta temirni cho‘g‘ga solib bolg‘alaydi, cho‘zadi, yassilaydi, yana olovga soladi. (*Oybek*) 4. Bir-birimiz bilan tezda eski qadrdonlardek suhbatlashdik. (*G‘afur G‘ulom*) 5. Mirtursun Xalifaning terakzoriga yaqinlashgach, u qadamini sekinlatdi. (*X. Sultonov*)

X

II-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash.

1. Fe’llar tuzilishiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?
2. Sodda tub fe’llarga ta’rif bering.
3. Sodda yasama fe’llarga misollar keltiring.

187-mashq. ***Uyga vazifa.*** Ko‘chiring. Sodda fe’llarni topib, tagiga chizing.

1. Peshonangiz devorga qarsillab urilgandan keyin esingiz kiradi. Sizni ko‘p laqillatishdi. (*Said Ahmad*) 2. Nihoyat, ko‘prik ortda qoldi, guvullash tindi. (*P. Qodirov*) 3. Izg‘irindan ko‘zlar yoshlandi, oyoq ostidagi qor g‘irchillaydi. (*O. Yoqubov*) 4. Chollar kulgudan qotib qoldilar, ularning burishgan yuzlari ruhlanib, ko‘zlarini kulgu namladi. (*Oybek*) 5. Dunyoda pok odamlar qanchalik ko‘paysa, nopok odamlar shunchalik kamayadi. (*X. Sultonov*)

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **18 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Kelasi zamon shakllari.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Kelasi zamon shakllari haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Fe'llar tuzilishiga ko'ra necha xil bo'ladi?
2. Sodda tub fe'llarga ta'rif bering.
3. Sodda yasama fe'llarga misollar keltiring.

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Berilgan fe'llardagi zamonni bildiruvchi qo'shimchalarni aniqlang.

O'tiraman, o'tiryapsan, o'tiradi; yashayman, yashayapman, yashayotir; izlarman, izlayapman, izlar; toparman, topyapsan, topar.

BILIB OLING. **Kelasi zamon shakllari harakat yoki holatning gap aytilayotgan vaqtdan so'ng yuz berishini bildiradi.**

Bu zamon shakllari fe'l asoslariga *-a, -y, -(a)r* qo'shimchalarini va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

Bu shakllar ba'zan harakatning doimiy, har uch zamonga oidligini ham ifodalaydi. Masalan: *Akam kollejda o'qiydi.*

ESDA SAQLANG. **Undosh bilan tugagan fe'l asoslariga kelasi zamonning *-a, -ar*, unli bilan tugagan fe'l asoslariga *-y, -r*, bo'lishsiz fe'l shakllariga esa *-s* qo'shimchasi qo'shiladi. *-(a)r* shakli kelasi zamonni gumon, taxmin yo'li bilan ifodalaydi.**

222-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarni toping. Kelasi zamon ma'nosini ifodalayotgan qo'shimchalarni aniqlang.

1. Daryoning suvi ko'paysa, baliqlarning chiqishi oson bo'ladi. (*Said Ahmad*) 2. Kunlarning sanog'in bilmay qolasan. (*Omon Muxtor*) 3. Maktabga boray, siz aytgan narsani topay, keyin aytaman. («*G'uncha*»dan) 4. Dalaga suv chiqaraman, ekinlar gurkirab, yashnab ketadi. (*Said Ahmad*) 5. Ertaga mashina kelar, kelmasa, yo'lga chiqmayman. (*Omon Muxtor*)

223-mashq. Berilgan gaplardan kelasi zamon ma'nosini bildirgan fe'llarni topib, tahlil qiling.

1. Har holda menga o'xshagan o'yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topiladi. (*G'afur G'ulom*) 2. Sen choyni jindek qo'yib turib, chala qoldirgan yerlaringni supuratur, kelib qolar. (*Cho'lpon*) 3. Qushlar sovuq tushishi bilan issiq o'lkalarga uchib ketadi. 4. Bahorning iliq kunlarida dam olishga boraman. (*U. Hamdam*) 6. Mix bolg'adan qutulaman deb, taxtaga kirib ketdi. (*Asqad Muxtor*)

224-mashq. Kelasi va hozirgi zamon shaklidagi fe'llar ishtirok etgan 3 ta gap tuzing. Ularning farqini tushuntiring. Qanday qo'shilmalar orqali hosil bo'lganligini yodda tuting.

XII-Mustahkamlash: O'quvchilarni baholash.

1. Kelasi zamon deb nimaga aytiladi?
2. Kelasi zamon fe'llari qaysi qo'shimchalar yordamida yasaladi?
3. Kelasi zamon fe'l shakllarining hozirgi zamon ma'nosini ifodalashiga misollar keltiring.

225-mashq. ***Uyga vazifa.*** «Odob — oltindan qimmat» mavzusida matn tuzing. Unda ishtirok etgan fe'llarning qaysi zamondaligini tushuntiring.

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **19 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Mayl shakllari.

IV-Darsning maqsadi

Ta'limiy maqsad – Mayl shakllari haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Kelasi zamon deb nimaga aytiladi?
2. Kelasi zamon fe'llari qaysi qo'shimchalar yordamida yasaladi?
3. Kelasi zamon fe'l shakllarining hozirgi zamon ma'nosini ifodalashiga misollar keltiring.

XI-Yangi mavzu bayoni :

BILIB OLING. **Fe'l ifodalagan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'l shakllari *mayl shakllari* sanaladi. Fe'llarning uchta mayl shakli mavjud: 1) xabar mayli; 2) buyruq-istak mayli; 3) shart mayli.**

BILIB OLING. **Harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabar, darakni bildiruvchi fe'l shakli *xabar mayli shakli* hisoblanadi. Bu mayl fe'l asosiga zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ifodalanadi.**

BILIB OLING. **Harakat va holatni bajarish yoki bajarmaslik haqidagi buyruq, istak, iltimos, maslahat ma'nolarini bildirgan fe'l shakli *buyruq-istak mayli shakli***

sanaladi.

Buyruq-istak mayli shakllari fe'l asoslariga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi: *-(a)y, -(a)yin, -gin (-kin, -qin), -(i)ng, -sin, -(a)ylik, -(i)nglar.*

226-mashq. Fe'llarni toping, qaysi mayldaligini aniqlang.

1. Avvallari yashash uchun yozdim, endi yozish uchun yashayapman. 2. Inson qanchalik uzoq yashasa, yana shuncha ko'proq yashagisi keladi. 3. Qarilikdan qo'rqma, unga hali yetish kerak. 4. O'n olti asr oldin toshga o'yib bitilgan O'rxun bitiklarini o'qing. (*Asqad Muxtor*)

228-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarni toping va qaysi mayldaligini aniqlang.

1. Zebi yuragida tugilib yotgan zo'r tugunni yechib yuborgan edi. (*Cho'lpon*) 2. Koyima, qizim, — dedi ona, — o'rtog'ingni quruq jo'natmaymiz. (*Cho'lpon*) 3. Puch yong'oq bilan qo'yin to'lg'azma. (*Maqol*) 4. To'qlikda ochlikni o'yla, boyiganda muhtojlikni. (*Maqol*) 5.Odamlar seni bilmasa ham, sen odamlarni bil.

231-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarni tarkibiy qismlarga ajrating. Har bir qismni tahlil qiling.

1. Bola chaqqonlik bilan o'zini suvga otdi. (*S. Mengnorov*) 2. Ishyoqmaslarning idorama-idora yurib arz qilishdan boshqa ishi yo'q. (*P. Qodirov*) 3. Kabob uchun shahardan zira-piralarni ham olib chiqib qo'ydik. (*P. Qodirov*) 4. Otasi Qo'qonning Madalixon madrasasida bir necha yillar mudarris bo'lib ishlagan. (*Abdulla Qodiriy*) 5. Cho'pon gapiradi, xotini aytadi, o'g'li chaqiradi. (*Sh. Xolmirzayev*) 5. Kunduzi bo'lishiga qaramay, birdan hamma yoq qop-qorong'i bo'lib ketdi. (*P. Qodirov*)

XII-Mustahkamlash: O'quvchilarni baholash.

1. Xabar mayli deb nimaga aytiladi?
2. Xabar maylidagi fe'llarga misollar keltiring.
3. *Ishlamoq, yopmoq, qurmoq* fe'llarining xabar maylidagi shakllarini yasang.

237-mashq. ***Uyga vazifa.*** «Qishda» mavzusida bog'lanishli matn tuzing. Unda buyruq-istak maylidagi fe'llar ishtirok etsin. Ularning ma'nolarini tushuntirib berishga harakat qiling.

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **20 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Ot.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad –Ot haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Xabar mayli deb nimaga aytiladi?
2. Xabar maylidagi fe'llarga misollar keltiring.
3. *Ishlamoq, yopmoq, qurmoq* fe'llarining xabar maylidagi shakllarini yasang.

XI-Yangi mavzu bayoni :

Topshiriq. So'zlarni tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft, takroriy otlarga ajrating.

Qo'ziqorin, achchiqtosh, uchburchak, dori-darmon, yosh-qari, qo'ni-qo'shni, daraxt, yer, osmon; non-pon, choy-poy, belkurak, belbog', tustovuq, oy, quyosh, tesha, ota-ona, aka-uka, qarindosh-urug', osh-posh, ko'z-po'z.

Sodda otlar	Qo'shma otlar	Juft otlar	Takroriy otlar

BILIB OLING. Faqat bir asosdan tarkib topgan otlar *sodda ot* hisoblanadi. Masalan: *uy, yer, tosh, tuz, daraxt.*

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan otlar *qo'shma ot* sanaladi. Masalan: *qo'lqop, oltingugurt, be-*

shiktervatar.

Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli asoslardan tarkib topgan otlarga *juft otlar* deyiladi. Masalan: *o'g'il-qiz, idish-tovoq, ota-ona.*

Ikkinchi qismi birinchi qismining tovush o'zgarishi asosidagi takroridan tarkib topgan otlar *takroriy otlar* sanaladi. Masalan: *tuz-puz, tovoq-povoq, uy-puy.*

254-mashq. Gaplarni o'qing, sodda, qo'shma, juft otlarni aniqlab, guruhlarga bo'lib ko'chiring.

1. Boychechakning tovlanib turgan gulbarglari hammaning ko'nglidagi gina-adovatga barham berdi. (*A. Ko'chimov*) 2. Oradan uch-to'rt kun o'tgach, dadam Qipchoqlardan hovli topib keldi. Ammam ko'rpa-yostiq, amakim qozon-tovoq, boshqa tanish-bilishlar choynak-piyola deganday, har kim baholi qudrat qarashib, o'sha hovliga ko'chdik. (*Abdulla Qahhor*) 3. Somonsuvoq qilingan tekis tomning ustiga o'rikning bir shoxi egilib turardi. (*P. Qodirov*) 4. Bahoroy juda go'zal, Hamma fasldan o'zar. Gulchechakdan libosi, Yoqimlidir havosi. (*M. Ibrohimova*)

256-mashq. Matnni ko'chiring, sodda, qo'shma va juft otlarning tagiga chizing.

Bog'da zotli, asl olmalar, xilma-xil gilos-olchalar, kursillama nashvati, yumshoq xushbo'y noklar, achchiq va chuchuk tuyatish anorlar va boshqa-boshqa meva daraxtlari ko'p. Tokzorga kelsak, husayni, yakdona, shivirg'oni, charosdan boshlab tanako'zi, qorajangal, bedona kishmishga qadar turli-tuman navlar bor. (*Oybek*)

XII-Mustahkamlash: O'quvchilarni baholash.

1. Sodda otlar deb nimaga aytiladi?
2. Qo'shma otlarga misollar keltiring.
3. Juft otlar qanday hosil qilinadi?

257-mashq. ***Uyga vazifa.*** Quyidagi otlarni sodda, qo'shma, juft otlarga ajratib, guruhlab yozing.

Buloq, tokzor, ekin-tikin, to'rtburchak, dunyoqarash, yor-birodar, do'stlik, o'y-xayol, gulchambar, kurash, aql-hush, merosxo'r, bilim, gulhamishabahor, ko'klam, savdo-sotiq, oy.

I-Sana_____ **Sinf-**_____ **21 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Aniq va mavhum otlar.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Aniq va mavhum otlar haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Sodda otlar deb nimaga aytiladi?
2. Qo'shma otlarga misollar keltiring.
3. Juft otlar qanday hosil qilinadi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

T o p s h i r i q . Berilgan otlarni aniq va mavhum ma'nolarni bildirishiga ko'ra guruhlarga ajrating.

Baxt, pari, farishta, uyqu, hayo, orzu, qalam, o'rik, o't.

BILIB OLING. Sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lgan narsalarni bildirgan otlarga *aniq otlar* deyiladi: *kitob, mashina, uy, eshik, dutor* va hokazo.

Sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lmagan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan narsalarni bildirgan otlarga *mavhum otlar* deyiladi: *dev, xayol, aql, o'y, go'zallik* va hokazo.

Aniq otlar birlik va ko'plik shaklida qo'llana oladi, ammo mavhum otlar ko'plik shaklida qo'llanganda, asosan, ko'plik ma'nosi emas, balki ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolari ifodalanadi.

312-mashq. Aniq va mavhum otlarga qo‘shilgan ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalariga e’tibor bering. Ko‘plik qo‘shimchasining qanday ma’no qo‘shayotganini izohlang.

1. U o‘z qalbida kechayotgan tuyg‘ularning nomini bilmas, shu daqiqadagi holatini o‘rtoqlariga ham izohlab berolmas edi. (*Qamchibek Kenja*) 2. Hunarlaringni, didlaringni rosa ishlatib, chiroyli bino solib bersalaring, bas. (*Oybek*) 3. Mening Jasur ismli ukam bor. U hayvonlarni, ayniqsa, itlarni yaxshi ko‘radi. (*I. Xolliyeva*) 4. Ular qushchalarni tomosha qilishadi. (*A. Azimova*)

313-mashq. Gaplarni o‘qib, aniq va mavhum otlarni toping, ularga izoh bering. Hikmatlarning mazmuni haqida suhbatlashing.

1. Hasad — yurakning zanglashi, qaysarlik mag‘lubiyat sababchisidir. 2. Oyog‘ingiz yugursa, maqsadingizga yetkazadi, tilingiz yugursa boshingizga falokat keltiradi. 3. Yalqovlik muhtojlik eshigidir. 4. Narsa deb odamlar e’tiboridan qolish yomon. 5. Hayo qalbning haqiqiy ko‘zgusidir. (*«Sharq hikmatlari»dan*)

316-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Mavhum otlarni aniqlang, yasalishi va imlosiga diqqat qiling.

1. Vujudimga hokimlik qilayotgan o‘sha tuyg‘ular o‘rnini shafqat, odamiylik, hamdardlik egallab oldi. (*Said Ahmad*) 2. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. (*T. Mahmudov*) 3. Mardlik — insonning husni. (*Maqol*)

XII-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash.

1. Aniq otlar deb nimaga aytiladi?
2. Mavhum otlarga misollar keltiring.
3. Mavhum otlar nima sababdan ko‘plik shaklida qo‘llanmaydi?

314-mashq. ***Uyga vazifa.*** Aniq va mavhum otlarni ajrating. Ular o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.

1. Shu sevinch ikkovlariga ham kuch-g‘ayrat, ham dadillik baxsh etgandek bo‘ldi. (*X. To‘xtaboyev*) 2. Qirlarning g‘ir-g‘ir shamoli, o‘pkalarga moydek tuyulgan totli havosi hammamizning ruhiyatimizni ko‘tarib yubordi. (*Oybek*) 3. Osmon hadsiz, ufqlar, qirlar jimirlaydi zarrin yog‘duda. Osmon kabi tiniq tuyg‘ular mavj uradi bu yosh ko‘nglimda. (*Z. Nazarova*)

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **22 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Sifat.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Sifat haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum",

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Aniq otlar deb nimaga aytiladi?
2. Mavhum otlarga misollar keltiring.
3. Mavhum otlar nima sababdan ko'plik shaklida qo'llanmaydi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

Topshiriq. Berilgan so'z birikmalaridan qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlarni aniqlang.

Chiroyli ko'ylak, baland bino, devoriy gazeta, qiziq gap, kuzgi ekin.

BILIB OLING. **Otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan va *qanday*? *qanaqa*? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga *sifat* deyiladi.**

325-mashq. Matnni o'qing, belgini bildirgan so'zlarni aniqlang.

Baqqol amaki o'zi pakana-yu, lekin yuzi katta, peshonasi keng, yakkam-dukkam soqolli, burni puchuq, iyagi kalta odam. Qorni ham haddan tashqari katta bo'lganligi uchun o'tirganda xuddi bir qop go'shtdek bo'lib qoladi. O'ziyam juda

g‘alati odam, sergapmi, kamgapmi, bilib bo‘lmaydi. Bir qarasangiz, qiziq-qiziq gaplarni aytib, odamlarni kuldirib o‘tiradi; bir qarasangiz, gung bo‘lib boshini egib oladi.

326-mashq. Matnni ko‘chiring. Sifatlarni topib, ularning qanday so‘roqqa javob bo‘layotganini aniqlang.

Yo‘lga tushishdi. Kech kirib, ajib bir so‘lim payt boshlandi. Yonbag‘irlar ko‘m-ko‘k. Bu taraflarda mashinalar ko‘p qatnamaganidan chang-to‘zon bo‘lmas, tez-tez yomg‘ir quyib turganidan daraxtlarning shundog‘am beg‘ubor barglari yuvilib, xandon pista mag‘zidek och yashil tusda ko‘rinar edi. Yo‘lning bir tomoni azamat toshlar qalashgan yonbag‘irlik, bir tomoni soy. Unda yuqoridan shitob bilan quyilib kelayotgan tiniq suv toshlarga urilib, qirg‘oqqa sapchib oqardi. (*Said Ahmad*)

328-mashq. Oybekning «Bolalik» asaridan olingan gaplarni o‘qing. Qavs ichidagi sifat yasovchi qo‘shimchalardan mosini nuqtalar o‘rniga qo‘yib, ko‘chiring.

1. Otin bibi qari, jiddiy, (bo-, ser-, no-)... savlat xotin. 2. O‘yma... (-gar, -li, -kor) gullari bilinmaydigan darajada o‘chgan, qo‘sh tabaqa... (-siz, -li, -miy) eski eshikka kiramiz. 3. Pochcham ellikdan oshgan, novcha, kasal... (-chan, -kash, -mand), rangpar kishi. 4. Cho‘ponlar sez... (-qur, -gir, -kir), itlar ham ziyrak, bo‘ridan ayyor. 5. Do‘mbirachi qadim... (-iy, -gi, -dor) qozoq hayotidan dostonlar kuylamoqda.

XII-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash.

1. Sifat deb nimaga aytiladi?
2. Sifatlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Rang-tusni bildiruvchi sifatlarga misollar keltiring.
4. Maza-ta’mni bildiruvchi sifatlar ishtirokida gaplar tuzing.
5. Belgi-xususiyat bildiruvchi sifatlar qaysilar?

330-mashq. ***Uyga vazifa.*** Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

1. Inson tabiatning eng ong... farzandi. (*Tohir Malik*) 2. Pastdagi bog‘dan yumsho..., namxush xazon hidi ko‘tarilib, uning xayollarini to‘l... oy sehrlagan tog‘ vodiy daralariga olib ketardi. (*Asqad Muxtor*) 3. Oybek domla nihoyatda tiyraklik bilan, ko‘pchilik nom... insonlarda juda kam uchraydigan samimiyat va bolalarcha beg‘uborlik bilan opaning gaplarini tasdiq etdi. (*A. Oripov*) 4. Bu o‘lkada iqlim o‘rtacha, suv mo‘l, yer unum..., quyosh nuri yetarli. (*G‘afur G‘ulom*) 5. Ariqlarda suv emas, o‘yno... nur oqadi. (*Abdulla Qahhor*)

I-Sana_____ **Sinf-**_____ **23 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Asliy va nisbiy sifatlar.

IV-Darsning maqsad:

i **Ta'limiy maqsad** – Asliy va nisbiy sifatlar haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad –O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Sifat deb nimaga aytiladi?
2. Sifatlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Rang-tusni bildiruvchi sifatlarga misollar keltiring.
4. Maza-ta'mni bildiruvchi sifatlar ishtirokida gaplar tuzing.
5. Belgi-xususiyat bildiruvchi sifatlar qaysilar?

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni *-roq* qo'shimchasini oladigan, olmaydigan guruhlarga ajrating.

Mazali, go'zal, chiroyli, ro'molli, sermeva, erksevar, paxtali, tonggi, so'nggi, kuzgi, chillaki, yuzaki.

BILIB OLING. **Belgini to'g'ridan to'g'ri ifodalaydigan va uni darajalab ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan sifatlar *asliy sifatlar* deyiladi: *go'zal, chiroyli, shirin, oq, aqlli, yuzaki.* Belgini to'g'ridan to'g'ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlagan holda ifodalaydigan va daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmagan sifatlar *nisbiy sifatlar* deyiladi: *qishki, ko'chma, derazali, devoriy.***

351-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Asliy va nisbiy sifatlarning tagiga chizing, ularni izohlang.

1. Hovlimizda ko‘cha eshikdan kiraverishda kichkina, g‘ishtin uycha bor. (*N. Toshev*) 2. Temur yuksak insoniylik xususiyatlariga ega bo‘lgan buyuk shaxs edi. (*A. Ahmedov*) 3. Uning jussasi kichkina bo‘lsa ham yuzlari jiddiy, boqishlari o‘tkir, ovozi esa jarangdor. (*H. Akbarov*) 4. Yonbag‘irlarda rango-rang tovlanib, xushbo‘y atrini taratayotgan gullarga nazar tashlayman. (*R. Musayev*) 5. U oltmishlarga borib qolgan bo‘lsa-da, yosh-lardek ikki beti qip-qizil, serg‘ayrat va tavakkalchi odam edi.

352-mashq. Sifatlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birga ko‘chiring va ularning asliy yoki nisbiy sifat ekanligini tushuntiring.

Tog‘ etaklarida ko‘m-ko‘k maysalar uzra nafis gullar, turli xushbo‘y giyohlarning hidlari anqiydi. Daraxtlar siyrak, onda-sonda pakana daraxtlar uchrab qoladi. Otlar balandlik, tepalikka intilib, oyoqlarini g‘urur bilan chiroyli tashlaydi, boshlarini ko‘rkam tutadi. Shu sayrdan, tabiatning go‘zalligidan nash’a va safo tuygan bu aqlli jonivorlarning tiniq ko‘zlarida xushnudlik ifodasini ko‘raman. Naqadar go‘zal jonivor bular.. Sevaman, ko‘ngildan, chindan sevaman otlarni!.. (*Oybek*)

353-mashq. Matnni o‘qing. Asliy va nisbiy sifatlarni toping. Ular nimasi bilan farqlanishini tushuntiring.

Dam olish kunlaridan biri edi. Ko‘chaga chiqdim. Kech kuz bo‘lsa ham havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Hammayoqda yaproqlar: oq, sariq, yashil yaproqlar... Go‘yo ko‘chaga chiqi-shingizni kimdir bilgan-u yo‘lingizga gilam to‘shab qo‘ygan.

XII-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash.

1. Asliy sifatlar deb nimaga aytiladi?
2. Nisbiy sifatlarga misollar keltiring.
3. Nisbiy sifatlarga *-roq* qo‘shimchasini qo‘shish mumkin-mi?

354-mashq. ***Uyga vazifa.*** «O‘zbek milliy liboslari» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan asliy va nisbiy sifatlarni izohlang.

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **24 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Son.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Son haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad –O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti
c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni
c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Asliy sifatlar deb nimaga aytiladi?
2. Nisbiy sifatlarga misollar keltiring.
3. Nisbiy sifatlarga *-roq* qo'shimchasini qo'shish mumkin-mi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

BILIB OLING. **Narsalarning son-sanog'i va tartibini bildirib, *qancha? necha? nechanchi?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar *son* deyiladi.**

BILIB OLING. **Sonlar narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarining miqdori yoki tartibini bildiradi. Shunga ko'ra sonlar ikki guruhga bo'linadi: 1) miqdor sonlar; 2) tartib sonlar.**

BILIB OLING. **Miqdor sonlar qanday miqdorni bildirishiga ko'ra *sanoq, dona, chama, taqsim, jamlovchi, kasr* sonlarga bo'linadi.**

BILIB OLING. **Son-sanoqni bildiruvchi sonlar *sanoq sonlar* deyiladi. Sanoq sonlar yozuvda, ko'pincha, arab raqami bilan yoziladi.**

389-mashq. Matnni o‘qing. Sonlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birga ko‘chiring va qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlang.

Choy odamlarga juda qadimdan ma’lum. Kishilar choyni dastlab dori o‘rnidagina iste’mol qilishgan. Bundan besh ming yil muqaddam yozib qoldirilgan qo‘lyozmalardan birida: «Choy kishining ruhini ko‘taradi, yurakning ishini muloyimlashtiradi, hordiq chiqaradi, tanani tozalaydi va zehnni ravshanlashtiradi», deyilgan.

Hozirgi vaqtda bir yilda dunyo bo‘yicha taxminan sakkiz yuz ming tonnadan bir million tonnagacha choy yetishtiriladi, shuning uchdan bir qismi Hindistonga to‘g‘ri keladi.

Rossiyaga dastlab Mongoliyadan 1638-yilda dori sifatida choy yuborilgan. 1833-yili Qrimda, 1846-yili Gruziyada tajriba uchun choy ekilgan... (*«Qiziqarli geografiya»dan*)

390-mashq. Berilgan gaplardagi sonlarni aniqlang, ularning shakliga e’tibor bering.

1. Ikki soatlar eshakda yurib, tog‘dan tog‘ga o‘tib andak toliqqan edim. (*I. G‘afurov*) 2. Yetimlik nimadir, bizlardan so‘ra, O‘ninchi yillarning sargardonligi... Isitma aralash qo‘rqinch tush kabi Xayol ko‘zgusidan o‘chmaydi sira. (*G‘afur G‘ulom*) 3. Globusda bo‘lgan har kichik nuqta, Millionlab qondoshga vatan, albatta. (*G‘afur G‘ulom*) 4. Beruniy Amerika qit’asining borligini Kolumbdan 450 yil avval taxminlagan. (*Asqad Muxtor*)

392-mashq. Gaplarda ishtirok etgan sonlarni taqqoslang. Ularning farqini tushuntiring.

1. Nihoyat, butunlay holdan toyib, ikkovining qimirlashga ham majoli qolmay, taxtaday qotib turaverishibdi. (*Ertakdan*) 2. Qulupnayning mevasi naviga qarab, uchtadan saksontagacha bo‘lishi ham mumkin. (*M. Nabiyev*) 3. Besh-oltita tinish belgi kelib bugun, o‘tkazmoqqa qaror qildi jiddiy yig‘in. (*Sulton Jo‘ra*)

XII-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash.

1. Son deb nimaga aytiladi?
2. Sonlar qanday yoziladi?
3. 156, 1005, 174536 sonlarini harf bilan yozing va imlosini tushuntirib bering.

391-mashq. ***Uyga vazifa.*** O‘zingizning tarjimayi holingizni yozing va unda ishlatilgan sonlarni izohlang.

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **25 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Jamlovchi son uning yasalishi.

IV-Darsning maqsadi :

Ta'limiy maqsad – Jamlovchi son uning yasalishi haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni

mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-0Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Son deb nimaga aytiladi?
2. Sonlar qanday yoziladi?
3. 156, 1005, 174536 sonlarini harf bilan yozing va imlosini tushuntirib bering.

XI-Yangi mavzu bayoni :

BILIB OLING. **Narsalarning miqdorini jamlab ko'rsatadigan sonlar *jamlovchi sonlar* deyiladi. Ular *-ov, -ala, -ovlon* kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi.**

ESDA SAQLANG. ***-ov, -ala*** **qo'shimchalari faqat ikkidan o'ngacha bo'lgan sonlarga qo'shilib, jamlik ma'nosini ifodalaydi. Bu qo'shimchalar unli bilan tugagan sanoq sonlarga qo'shilganda asos qismdagi *i* unlisi tushib qoladi.**

1-topshiriq. Berilgan sanoq sonlarga **-ala, -ov** qo'shimchalarini qo'shib ko'chiring. Bu qo'shimchalarni qaysi sonlarga qo'shib bo'lmasligini ayting. Sanoq sonlarga qo'shilgan yuqoridagi qo'shimchalarning qanday

ma'no ifodalashini tushuntiring.

Bir, ikki, uch, besh, olti, sakkiz, o'n.

2-topshiriq. Unli bilan tugagan *ikki, olti, yetti* sonlariga *-ala, -ov* qo'shimchalari qo'shilganda asos qismda qanday o'zgarish bo'lganini aniqlang.

408-mashq. Avval sanoq sonli, keyin dona sonli, so'ng chama va jamlovchi sonli gaplarni yozing.

1. Ikkovining orasida hech qanday sir yotmaydi. (*Ibrohim Rahim*) 2. Sizlar mana shu to'qqizta xivichni birga qo'shib sindirib ko'ringlar-chi! (*Ertakdan*) 3. U yig'lab, to'rt tomonga yuguribdi. (*Ertakdan*) 3. Bunyod yetti kun kezdi. Yetti qora tun kezdi. Eng oxiri tun chog'i Bir hid sezdi dimog'i. (*Hamid Olimjon*) 4. Po'lat qizga nisbatan bir yosh katta bo'lsa ham bir-biriga yondosh bo'lib, qadrdon qo'shni edilar. (*Sh. Rashidov*) 5. Yuragi shuvullab, cheklanib o'tarkan, uch-to'rt yashar qizchaga ko'zi tushdi. (*Oybek*) 6. Durroj ham Sherning so'zini ma'qul ko'rdi va shu o'rmonda ikkovi do'stona yashay boshladi. (*Navoiy*) 7. To'rtko'z bo'lsa bizdan o'n qadamcha ilgariroqda chopib borar, goh bizga yaqin kelib, atrofimizda o'ynoqlar edi. (*G'ayratiy*)

409-mashq. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan sonlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. ... tepalik orqasiga o'tib qarasak, bir chuqurga tushib qolgan To'rtko'z badanidan qon oqib ingrab yotibdi. (*G'ayratiy*) 2. Umidjon jonholatda ... qo'li bilan boshini ushlab: «Yo'q, kerak emas, podshoh bo'lmayman», deya qichqirib yubordi. (*N. Aminov*) 3. Har ... mehmon: «Biz, farosatsizlarni kechiring, otaxon», deya mezbonning oyog'iga yiqilishdi. (*N. Aminov*). 4. Hotamjon ... oyog'ini qimirlatolmay yotardi. (*O'. Umarbekov*) 5. ... dalaning poynagiga qarab yurdilar. (*G'afur G'ulom*)

XII-Mustahkamlash: O'quvchilarni baholash.

Sonlar: *Ikkalamiz, uchala, ikkala, uchovlari, bir, bitta.*

1. Jamlovchi sonlar qanday yasaladi? Ular nima uchun shunday nomlanadi?
2. Jamlovchi son yasovchi qo'shimchalar qaysi son asoslariga qo'shilganda ular tarkibida o'zgarish yuz beradi?

411-mashq. ***Uyga vazifa.*** «Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, To'rtovlon tugal bo'lsa, unmaganni undirar» maqoli asosida hikoya tuzing. Unda sonlardan foydalaning.

I-Sana_____ **Sinf-**_____ **26 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Taqsim son, uning yasalishi.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad –Taqsim son, uning yasalishi haqida ilmiy tushunchalar berish

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-0Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti
c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni
c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Jamlovchi sonlar qanday yasaladi? Ular nima uchun shunday nomlanadi?
2. Jamlovchi son yasovchi qo'shimchalar qaysi son asoslariga qo'shilganda ular tarkibida o'zgarish yuz beradi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

BILIB OLING. **Narsalarning miqdorini taqsimlab ko'rsatadigan sonlarga *taqsim son* deyiladi. Ular *-tqdan* qo'shimchasi yordamida yasaladi.**

412-mashq. Gaplarni o'qing. Taqsim sonlarni topib, yasalishini tushuntiring.

1. Azim har yelkasiga to'rttadan odam sig'adigan yigit bo'libdi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Laylak har yili uchtadan bola ochar ekan. (*Ertakdan*) 3. U bu yilgi bahorda har yuz ona qo'ydan bir yuz yigirma bittadan qorako'l qo'zisi oldi. (*G'afur G'ulom*) 4. Eshakning ustiga ikkitadan bo'lib mindik. (*X. To'xtaboyev*) 5. Ular ikkitadan bo'lib saf tortishdi.

413-mashq. Arab raqamlarida berilgan sonlarni harflar bilan yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing.

7—8 tadan, 15 ovi, 2 tasi, 25 tadan, 50 tadan, 3 tachasidan, 9 tadan, 1 tadan, 7 tadan.

414-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Taqsim sonlarning tagiga chizib, hosil bo‘lishini tushuntiring.

1. Men ikkoviga bittadan ezilgan shaftoli beraman. (*Oybek*) 2. Qurolsiz, navkarsiz mulla Fazliddin Ahmad Tanbalday yuz-ikki yuztadan qurolli yigitlari bor beklarga qanday bas keladi?! (*P. Qodirov*) 3. Har birining oldiga bir siqimdan mayiz, ikkitadan non, bir choynakdan choy qo‘yib chiqdim. (*M. Abdullayev*) 4. Pakana buvi tuxum olib hammamizga ikkitadan ulashib chiqdi. (*X. To‘xtaboyev*) 5. Odamlar bitta-ikkitadan bo‘lib maydonga to‘plana boshlashdi. (*A. Abdumalikov*)

XII-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash.

1. Taqsim sonlar qanday hosil qilinadi?
2. Ular gapda qanday gap bo‘lagi vazifasini bajaradi?
3. Taqsim sonlar ishtirokida gaplar tuzing.

415-mashq. ***Uyga vazifa.*** Gaplarni o‘qing, sonlarni ajratib oling va ularni taqsim sonlarga aylantirib gaplar tuzing.

1. Bulbulning maqomlari, kuylari to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz emish... (*Oybek*) 2. Hamma yerim o‘ttiz yetti gektar. (*G‘afur G‘ulom*) 3. Bitta qovun kamida o‘n so‘m turadi. (*X. To‘xtaboyev*) 4. Go‘yo quyoshning botishini birinchi marta ko‘rayotgandek, ko‘zlarida hayrat aks etdi. (*N. Arslonov*) 5. Poyezddan tushgan uch-to‘rt yo‘lovchi tarqalib, bekatda Yigitalining yolg‘iz o‘zi qoldi. (*Tohir Malik*)

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **27 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi.

Ta'limiy maqsad – Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Taqsim sonlar qanday hosil qilinadi?
2. Ular gapda qanday gap bo'lagi vazifasini bajaradi?
3. Taqsim sonlar ishtirokida gaplar tuzing.

XI-Yangi mavzu bayoni :

Boshqa so'zlar, shuningdek, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar olmosh hisoblanadi. Masalan: *Kitobni ko'p o'qisangiz, undan ko'p hikmat topasiz. Istagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin.*

Birinchi gapda *undan* olmoshi *kitob* so'zi (ot) o'rnida, ikkinchi gapda *shuki* olmoshi *doimo tinchlik bo'lsin* gapi o'rnida qo'llanilgan.

Olmoshlarning aniq atash ma'nosi bo'lmaydi. Uning qaysi ma'noda kelayotgani matnda qaysi so'z yoki gap o'rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi.

Olmoshlar ma'nosiga ko'ra quyidagi yetti guruhga bo'linadi:

42-mashq. **Daftaringizga olmoshning ma'no turlari bo'yicha jadval chizing va quyida berilgan olmoshlarni jadvalga joylang.**

Olmoshlar: kim, nima, qayer, men, sen, o'z, u, bu, shu, qanaqa, qanday, hamma, barcha, bari, kimdir, nimadir, biz, siz, o'sha, ana, mana, hech kim, hech nima, har bir, har kim, har qanday, ular, nega, necha, mana bu, anovi, ba'zi, ayrim.

♦ 44-mashq. **O'qing. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib ko'chiring.**

1. Yigit bechoraning rangi quv o'chib ketgan. ... lablari pir-pir uchadi. 2. Tog'am — tajribali yurist. ... ko'p ishlarni adolatli hal qilgan. 3. Hovlimizdagi qip-qizil lolalar yal-yal yonadi. ... lolalar hammaning havasini keltiradi. 4. Bizning sinfimizda yigirma beshta o'quvchi bor. Muzaffarlarning sinfida ham ... o'quvchi bor.

XII-Mustahkamlash: O'quvchilarni baholash.

1. Olmosh deb nimaga aytiladi?
2. Olmoshlar qaysi so'z turkumlari o'rnida keladi?
3. Olmoshlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
4. Olmoshlar necha turli bo'ladi?

45-mashq. *Uyga vazifa.* **Quyida berilgan gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'rniga mos olmosh qo'llab, gaplar tuzing.**

1. **Xudoyberdi To'xtaboyev** — bolalarning sevimli yozuvchisi.
2. **Qiziqarli** kitoblarni ko'p o'qish kerak.

I-Sana_____ **Sinf-**_____ **28 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Olmosh o'rnida ishlatiladigan so'zlar.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad –: Olmosh o'rnida ishlatiladigan so'zlar haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Olmosh deb nimaga aytiladi?
2. Olmoshlar qaysi so'z turkumlari o'rnida keladi?
3. Olmoshlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
4. Olmoshlar necha turli bo'ladi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Gaplardagi ajratilgan so'zlarning qaysi olmosh ma'nosida qo'llanganini aniqlang.

1. Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiya tarkibida **kamina** ham bor edi. (*Q. Kenja*) 2. **Faqir** Sizning xizmatingizga bel bog'lagan. (*M. Osim*) 3. Sizni hamisha duo qilib qoluvchi **bandayi ojizingiz**.

Hozirgi o'zbek tilida ham xuddi shu ma'noda ba'zan *men* o'rnida *kamina* so'zi ishlatiladi.

***Men* olmoshi o'rnida yuqoridagi so'zlar ega vazifasida qo'llanganda, kesim ba'zan III shaxs shaklida, ba'zan esa I shaxs shaklida (asosan, eski o'zbek tilida) bo'lishi mumkin.**

✓ 74-mashq. **Ko‘chiring. Bo‘lishsizlik olmoshlarining tagiga chizing.**

1. Moziylar sasiga quloq tutgum jim, ustun bo‘lgan emas dunyoga hech kim. (*I. To‘xtamishev*) 2. Haqing berma hech kimga, urho-yo, urho. (*I. To‘xtamishev*) 3. Hammasi joyida, do‘stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman.

✓ 78-mashq. **O‘qing. Kishilik olmoshlari o‘rnida qo‘llangan so‘zlarni aniqlang. Ular qanday ma’no ifoda etayotganiga e’tibor bering.**

1. Faqir hozir taxmin qildimkim, Movarounnahrda ko‘chki bosgan buloq balki shu yerga kelib qayta ko‘z ochgandir? (*P. Qodirov*) 2. Kechirasiz, rais, kamina bugun emas, o‘g‘lingizni shogirdlikka olgandayoq aytganman. (*O. Yoqubov*) 3. Janoblar! Kamina hoziroq Xuttalonga otlanurmen! (*Muhammad Ali*) 4. Sizga ne bo‘ldi, ikki haftadan buyon faqiringizni zoriqtirib qo‘ydingiz. (*Oybek*) 5. Faqir u zotning suhbatlaridan bahramand bo‘lgan paytlarimni eslasam, yuragim ezilur! (*P. Qodirov*) 6. Kamina ham suhbatlaringizni sog‘inganmen. (*P. Qodirov*) 7. Tabibiy entikdi: — Faqiringiz vijdonim buyurgan gapni aytdim. (*S. Siyoyev*) 8. Xullas kalom, u mahalda kamina endigina institutni bitirib, yoshlar gazetasiga ishga kelgandim. (*O. Yoqubov*)

79-mashq. ***Kamina, faqir, kamtarin qulingiz*** **so‘zlari ishtirokida «Odobning boshi — til» mavzusida matn tuzing. Ularning qaysi olmoshlar o‘rnida ishlatilishini izohlang.**

XII-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash:

1. *Kamina* so‘zi ishtirokida gap tuzing.
2. *Kamtarin qulingiz* so‘zi ishtirokida gap tuzing va uning qanday ma’no anglatayotganini izohlang.
3. *Bandayi ojiz* so‘zi qanday olmosh o‘rnida ishlatiladi?

80-mashq. *Uyga vazifa.* **«Mustaqillik yillarida ona tilimiz rivoji» mavzusida matn tuzing. Matn tuzishda olmosh o‘rnida qo‘llanadigan so‘zlardan foydalaning.**

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **29 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Olmoshning tuzilishiga ko'ra turlari.

IV-Darsning maqsadi

Ta'limiy maqsad – Olmoshning tuzilishiga ko'ra turlari haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. *Kamina* so'zi ishtirokida gap tuzing.
2. *Kamtarin qulingiz* so'zi ishtirokida gap tuzing va uning qanday ma'no anglatayotganini izohlang.
3. *Bandayi ojiz* so'zi qanday olmosh o'rnida ishlatiladi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi olmoshlarni toping va turlarini aniqlang.

1. Men undan so'radim: Mehringni qo'yib, bunchalar saralab gul terding kimga? (*Q. Muhammadiy*) 2. Bir vaqtlar qarshimdan o'tsang, seni derdim oddiy yo'lovchi. (*Shukrullo*) 3. Shu-shu biz bordi-keldi qilamiz. (*A. Rahmat*)

Olmoshlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy bo'ladi.

81-mashq. Ko'chiring. Olmoshlarni topib, tagiga chizing, tepasiga uning tuzilishiga ko'ra turini yozing.

1. Shu-shu Otaqo‘zi ochilib ketib, o‘rinli-o‘rinsiz gaplarni ko‘p gapirib yubordi. (*O. Yoqubov*) 2. Siz o‘zingizni tuproq bilan tenglashtirmakchi bo‘lgansiz, lekin men hozir Kumushga ham qanoatlanmay Oltinbibi deb atamoq fikriga tushdim. (*A. Qodiriy*) 3. Hech qanaqa shartim yo‘q. Ishlab u-bu orttirish niyatim ham yo‘q. (*Said Ahmad*) 4. Shu-shu bo‘ldi-yu, Tursunboyning qulog‘idan Zebixonning ovozi nari ketmay qoldi. (*Said Ahmad*) 5. Hamma unga o‘girilib qarar, ammo Sattor Roziyadan boshqa hech kimni ko‘rmas edi. (*P. Qodirov*) 6. Mana bu manzarani qaranglar, qizlar, — dedi Manzura. (*Oybek*) 7. Hech kimni baxt o‘z-o‘zidan quchgan emas, Qush ham ko‘kka mashaqqatsiz uchgan emas. (*Iqbol Mirzo*) 8. Tani sog‘lom odamga uncha-muncha kasallik yuqmaydi. (*Ahmad Donish*)

83-mashq. **Matnni ko‘chiring. Olmoshlarni aniqlang, tuzilishiga ko‘ra turlarini belgilang.**

O‘zligini anglashga bel bog‘lagan har bir xalq va millat buyuk ajdodlari xizmatlarini e’zozlashni o‘rniga qo‘yadi, boshqalarga ham uni e‘tirof ettiradi.

O‘tmishda yashab o‘tgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini bilish shu kunning asosiy talabi sanaladi. Bularni egallamay turib, biron-bir shaxs komillik darajasiga erisha olmaydi. Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo‘la oladi. Uning har qanday mushkul vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, Vatanga xizmat qilish namunasi bo‘lib qolishi lozim. (*«Vatan tuyg‘usi» kitobidan*)

XII-

Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash:

1. Olmoshlar tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
2. *Men, u, hamma* tuzilishiga ko‘ra qanday olmoshlar sanaladi?
3. *Har bir, hech nima, allakim* tuzilishiga ko‘ra qanday olmoshlar deb qaraladi?

85-mashq. *Uyga vazifa.* **«Mustaqillik bizga nima berdi?» mavzusida matn tuzing. Qo‘shma olmoshlarning tagiga chizing.**

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **30 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Sodda va qo'shma olmoshlar ularning turlari.

IV-Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – Sodda va qo'shma olmoshlar ularning turlari haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Olmoshlar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. *Men, u, hamma* tuzilishiga ko'ra qanday olmoshlar sanaladi?
3. *Har bir, hech nima, allakim* tuzilishiga ko'ra qanday olmoshlar deb qaraladi?

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi olmoshlarni toping va ularning tuzilishini aniqlang.

1. Ulug' odam hech qachon yolg'iz qolmaydi. Taqdir uni qanchalar do'stlaridan ayirmasin, oxir-oqibatda u yana o'ziga do'st topib olaveradi. (*R. Rollan*) 2. Gulnor hamma narsani bir zumda tayyorlab dadasiga ko'rsatdi. (*Oybek*) 3. Ikkovining ham fikrini allanarsalar chulg'ab olgan edi. (*O'. Umarbekov*)

Faqat bir asosdan iborat bo'lgan olmoshlar sodda, ikki asosdan tashkil topgan olmoshlar qo'shma olmoshlar hisoblanadi.

Kim?, nima?, hamma, barcha **singari tub olmoshlar,** ***kimdir, qaysidir, allakim, allaqanday*** **singari yasama olmoshlar sodda olmoshlardir.**

***Hech kim, hech qachon, har bir, har kim, mana shu, ana o‘sha* kabi olmoshlar qo‘shma olmoshlardir.**

Yasama sodda olmosh qismlari qo‘shib, qo‘shma olmosh qismlari esa ajratib yoziladi.

86-mashq. **Gaplarni o‘qing. Sodda va qo‘shma olmoshli gaplarni alohida ko‘chirib yozing.**

1. Meni Sodir Badalovich yubordilar, — dedi so‘rashish uchun ikkala qo‘lini baravar uzatib. (*X. To‘xtaboyev*) 2. Yigitning dong‘i o‘zi tug‘ilib o‘sgan shaharga ham yetib boribdi. (*Ertakdan*) 3. So‘fi hech narsa demay o‘rnidan turdi. (*Cho‘lpon*) 4. O‘zingga o‘zingni maqtagandan qo‘rq. (*Maqol*) 5. Ana o‘sha yerda o‘zimizni ko‘rsatamiz. (*Said Ahmad*) 6. Tesha Saidiy bilan bahslashish qo‘lidan kelmaganini har bir so‘zi, har bir harakati bilan bildirib turar edi. (*Abdulla Qahhor*) 7. Ali Qushchi nechundir yana o‘sha iliq bahor kunini esladi. (*O. Yoqubov*) 8. Choyxonada, peshin bo‘lib qolganiga qaramay, hech kim yo‘q edi. (*O‘. Umarbekov*) 9. Lekin buni u hech qachon hech kimga aytmagan edi. (*O. Muxtor*)

87-mashq. **Ko‘chiring. Olmoshlarni aniqlang, ularning imlosini tushuntiring.**

Baxtni har kim o‘zicha tushunadi. Kimlarningdir qorni, ust-boshi but. Shuni baxt sanaydi. Kimlardir yeng uchida yashaydi. Ko‘ngli tinch.

Siz o‘z ota-onangizning jigargo‘shalarisiz. Bu kam. Siz o‘z xalqingiz, Vataningiz, millatingizning ko‘z qarog‘larisiz, ammo unutmang: tanbal, daqqi, bezori kishi ma’naviy nogiron degan so‘z. Unga hech kishining ko‘zi uchib turgani yo‘q. O‘zi uchun, qorni uchun yashab, nafs gadosi bo‘lib yurganlar jamiyat uchun ortiqcha odamlardir. Bunday nusxalarning bor-yo‘qligidan hech kimga hech qanday foyda yoki zarar yo‘q.

Komil inson esa hammaning joni. (*G‘. Salomov*)

XII-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash.

1. Sodda olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing va ularning imlosini tushuntiring.
2. Qo‘shma olmoshlar deb nimaga aytiladi?
3. Qo‘shma olmoshlarning imlosi haqida so‘zlang.

89-mashq. *Uyga vazifa.* **-*dir* qo‘shimchasi yordamida so‘roq olmoshlaridan gumon olmoshlari hosil qiling. Ularning yozilishiga e’tibor bering.**

Namuna: Tashqarida nimadir taraqladi.

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **31 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Kelishik shakllari.

IV-Darsning maqsadi

Ta'limiy maqsad – Kelishik shakllari haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Sodda olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing va ularning imlosini tushuntiring.
2. Qo'shma olmoshlar deb nimaga aytiladi?
3. Qo'shma olmoshlarning imlosi haqida so'zlang.

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Gapdagi nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring.

Har o'g'loni bul Vatan... (-dan, -ga, -ning) sultonlar... (-dan, -ga, -ning) teng bo'lsin. *(Sirojiddin Sayyid)*

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga qo'yilgan qo'shimchalarning qanday vazifa bajarishini izohlang.

3-topshiriq. Kelishik qo'shimchasini olgan so'zning qaysi so'zga bog'langanini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlang.

Ismlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi qo'shimchalar kelishik shakllari sanaladi.

Kelishik shakllari doimo tobe so'zga qo'shiladi.

O'zbek tilida oltita kelishik mavjud bo'lib, ularning har qaysisining o'z nomi va shakli bor.

115-mashq. **Berilgan jadvaldagi kelishiklar nomi va shakliga e'tibor bering.**

Kelishik nomlari	Qo'shimchalari	Misollar
Bosh kelishik	—	It hurar, karvon o'tar. *(Maqol)*
Qaratqich kelishigi	-ning	Kitobning varag'i.
Tushum kelishigi	-ni	Vataningni sev, tuprog'ini o'p. *(E. Vohidov)*
Jo'nalish kelishigi	-ga (-ka,-qa)	Betga aytganning zahri yo'q. *(Maqol)*
O'rin-payt kelishigi	-da	Yosh ko'nglimda orzularim mo'l. *(E. Vohidov)*
Chiqish kelishigi	-dan	Kutubxonadan keldim.

117-mashq. **Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring. Ularning qaysi biri hokim, qaysisi tobe so'z ekanini aniqlang. Tobe so'zning qaysi kelishikda ekanini ayting.**

Shoir yengil bir so'lish olib, tanburni tokchaga tirab qo'ydi. **Barmog'idan noxunni** chiqardi. Daricha yoniga o'tirdi. **Hovlida** shabada bilan o'ynashgan **daraxtlarning** yengil kuyidan boshqa **sado** yo'q. **Shoir** o'yga toldi. Mana u yana Hirotda, o'z uyida... Balki, endi butun umr bu suyukli **shaharda** muqim bo'lib qolar... **Kim** biladi, **taqdirning** xohishi, **jilvasi** yana qanday kutilmagan **o'yinlar** ko'rsatar ekan! (*Oybek*)

XII-Mustahkamlash: O'quvchilarni baholash.

1. Turlanish nima?
2. Kelishik shakllari qanday vazifa bajaradi?
3. O'zbek tilida nechta kelishik bor?

120-mashq. *Uyga vazifa.* **Matnni ko'chiring. Unda turlangan soz'larning tagiga chizing va qaysi kelishikda ekanini ayting. Matn mazmuniga e'tibor bering.**

Bobosi so'zini eshitgan nabira oldidagi kitoblarni taxlay boshladi, so'ng tokchadan xurjunni olib, unga kitoblarni solishga shaylandi. Bolaning bu qilig'ini ko'rib Temurning rangi o'zgardi.

I-Sana_____ **Sinf-**_____ **32 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning shakllari.

IV-Darsning maqsadi

Ta'limiy maqsad – Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning shakllari haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Turlanish nima?
2. Kelishik shakllari qanday vazifa bajaradi?
3. O'zbek tilida nechta kelishik bor?

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Berilgan ko'makchilarning qaysi kelishik shakllaridagi ismlar bilan qo'llanilishini aniqlang.

Sen bilan, oy kabi, gul singari, o'qish uchun, borgan sari, o'qigan sayin, daryo bo'ylab, aytishiga ko'ra, shunga qaramay, mehnatiga yarasha, qarorga asosan, hayotga doir, o'qishdan so'ng, tushdan keyin, va'daga muvofiq, bundan bo'lak.

Bilan, kabi, singari, uchun, sari, sayin, bo'ylab **kabi ko'makchilar, asosan, bosh kelishik shaklidagi ismlarga qo'shiladi.**

Ko'ra, qaramay, yarasha, asosan, doir, muvofiq **kabi ko'makchilar jo'nalish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladi.**

Tomon **ko‘makchisi bosh va jo‘nalish kelishigi shaklidagi ismlarga qo‘shiladi.**

Keyin, bo‘lak, boshqa, o‘zga, tashqari, buyon, oldin, boshlab, avval **kabi ko‘makchilar chiqish kelishigi shaklidagi ismlarga qo‘shiladi.**

Old, ost, ust **singari vazifadosh ko‘makchilar qaratqich kelishigi shaklidagi ismlarga qo‘shiladi. Bunday hollarda ba’zan kelishik qo‘shimchasi qo‘llanmasligi ham mumkin.**

177-mashq. **Nuqtalar o‘rniga ko‘makchilar talabiga muvofiq kelishik qo‘shimchasini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.**

1. Kozimbek mashinani yo‘lga chiqarib, qishloq... tomon yurdi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Qish o‘tib, bahor kelishi bilan Qorabog‘da o‘tkazilgan qurultoyda Boyazid... ustiga yurishga qaror qilindi. (*Xurshid Davron*) 3. Yomonlikdan chiqqan aks sado har qadam... sayin zaiflasha boradi, bora-bora o‘chib yo‘q bo‘ladi. (*Sh. Rashidov*) 4. Kecha Jannat xola o‘g‘li... oldiga borganda, soqoli o‘sib ketganini, sochlari quloqlaridan osilib vahshiy qiyofasiga kirib qolganini ko‘rgan edi. (*Said Ahmad*) 5. Markaziy xirurgiya klinikasining bosh shifokori Mirsidiq Jalilov bir hafta... beri Namanganda dam olardi. (*O‘. Umarbekov*) 6. Bu ishga qadam qo‘yish... ilgari bir karra sizning oldingizdan o‘tib, ra’yingizni bilishga to‘g‘ri keldi. (*Oybek*)

178-mashq. **Gaplarni ko‘chiring. Vazifadosh ko‘makchilar bilan birga kelgan so‘zlarni aniqlab, imlosini tushuntiring.**

1. Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas. 2. Insonning fe’l-atvoriga qarab unga baho berishadi. 3. To‘ydan keyin nog‘ora chalmoq – nodonlar ishi. 4. Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqatli mehnat yotadi. 5. Donolar oldida doim eshitguvchi bo‘l. (*«Hikmatnoma»dan*)

XII-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash.

1. Qaysi ko‘makchilar bosh kelishik shaklidagi so‘zlarga bog‘lanadi?
2. Jo‘nalish va chiqish kelishigidagi so‘zlar bilan birikadigan ko‘makchilar qaysilar?

180-mashq. *Uyga vazifa.* ***Singari, sayin, qaramay, asosan, tomon, tashqari, boshlab, ich*** **ko‘makchilarini qatnashtirib bog‘li matn tuzing. Unga sarlavha qo‘ying. Ko‘makchilarning qaysi kelishikdagi so‘zlar bilan bog‘langanini tushuntiring.**

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **33 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Bog'lovchilar.

IV-Darsning maqsadi :

Ta'limiy maqsad - Bog'lovchilar haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni

c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Qaysi ko'makchilar bosh kelishik shaklidagi so'zlarga bog'lanadi?
2. Jo'nalish va chiqish kelishigidagi so'zlar bilan birikadigan ko'-makchilar qaysilar?

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan yordamchi so'zlarni qo'yib, gaplar qatorini hosil qiling.

1. Men Pirimqul Qodirov ... Said Ahmad asarlariga qiziqaman. 2. Saidiy borib qishloqning ruhini o'z ko'zi bilan ko'rgisi keldi, ... borishga yuragi betlamas edi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Daraxtlarning barglari sarg'aya boshladi, ... kuz keldi.

(bilan, va, lekin, chunki)

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga qo'yilgan yordamchi so'zlarning vazifasi va gap ma'nosiga qanday ta'sir etayotganini ayting.

Gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlarga bog'lovchi deyiladi. Masalan: *va, ammo, lekin, biroq, chunki, yo... yo, dam... dam, goh...*

***goh* singari.**

Bilan* ko‘makchisi ba’zan uyushiq bo‘laklarni bog‘lab kelganda bog‘lovchi vazifasini bajaradi: *Qalam bilan daftar oldim.* O‘zaro tobe bog‘lanuvchi so‘zlarni bog‘lab kelganda ko‘makchi vazifasini bajaradi: *Qalam bilan yozdim.

Bog‘lovchilar: va, yo, ammo, bilan, lekin.

Nuqtalar o‘rniga bog‘lovchilardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. O‘rtoqlarim ... men uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamiz. (*Abdulla Qodiriy*) 2. Farzandlari galma-galdan xivichlarni bir yo‘la sindirishga urinibdi, ... hech biri buning uddasidan chiqa olmabdi. (*Ertakdan*) 3. O‘zi balo tog‘ining ... ofat bulog‘ining Boshida o‘ltirarmish, Kun-u tun, yoz ham qish. (*Hamid Olimjon*) 4. O‘ktam u yoq-bu yoqqa asta yurar, «Komila bu yerda biron ishga ... majlisga o‘ralashib qolmasaydi», deb xavotirlanardi. (*Oybek*) 5. — Sizga bir narsani ko‘rsataman, ... kinoga olmaysiz! — dedi Islom. (*Sh. Xolmirzayev*)

Gaplarni ko‘chiring, bog‘lovchilarni topib, ularni izohlang.

1. Yupanch topdingmi dunyoga kelib, Ustoz yo shogirddan, yoki tengdoshdan. (*A. Oripov*) 2. Nozimaxon goh mashinkasini, goh tikuv mashinasini yurgizib allamahalgacha ishlab o‘tiribdi. (*Xayriddin Sulton*) 3. Matniyoz xotini nima desa shuni qilardi-yu, lekin ich-ichidan unga achinib qo‘yardi. (*Asqad Muxtor*) 4. Men ham eshitgan va ko‘rganimni aytaman-da, jo‘ra. (*N. Aminov*) 5. Humoyun va Hindol ammalariga yelkalarini berib ko‘rishar ekanlar, yosh ayollar ularga bosh egib ta’zim qildilar. (*P. Qodirov*) 6. Mirzaqul yerga qaradi va boshiga telpagini qaytadan kiydi. So‘ng nimanidir aytmoqchi bo‘lib taraddudlandi-yu, lekin aytmay, indamay qoldi. (*Nazar Eshonqul*) 7. Ilm ahlining g‘animlari bo‘lmish mustabid shohlar kelib ketaverar, ammo bu maskan, bu zahmatkash xalq abadul-abad hayotdir. (*O. Yoqubov*)

XII-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash.

1. Bog‘lovchilar qanday vazifa bajaradi?
2. Ham ko‘makchi, ham bog‘lovchi vazifasida qo‘llaniluvchi so‘zni ayting.

Uyga vazifa. **«Jahonga bo‘y ko‘rsatayotgan yoshlar» mavzusida matn tuzing. Unda bog‘lovchilardan ham foydalaning.**

I-Sana_____ **- Sinf-**_____ **34 Tekshirdim**_____

III-Darsning mavzusi: Yuklama haqida ma'lumot.

IV-Darsning maqsadi

Ta'limiy maqsad – Yuklama haqida ma'lumot.
haqida ilmiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. Bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mahsuliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, guruxlarda ishlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, til madaniyatini o'stirish.

V-Dars turi: Yangi tishuncha va qonunlarni o'rgatuvchi dars.

VI-Darsda foydalaniladigan metodlar: Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum" ,

VII-Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmalar

VIII-Tashkiliy qism:

a) salomlashilsh b) navbatchi axboroti
c) davomatni aniqlash d) uyga vazifani tekshirish

IX-Darsning rejasi:

a) o'tilgan mavzuni takrorlash b) yangi mavzu bayoni
c) mustahkamlash. d) O'quvchilarni baxolash

X-O'tilganlarni takrorlash:

1. Bog'lovchilar qanday vazifa bajaradi?
2. Ham ko'makchi, ham bog'lovchi vazifasida qo'llaniluvchi so'zni ayting.

XI-Yangi mavzu bayoni :

1-topshiriq. Berilgan gaplarning bir-biridan nimasi bilan farq qilayotganini izohlang.

Dalalarda boshlanadi ish. (*Hamid Olimjon*) — Dalalarda ish boshlandi**mi**? — Dalalarda ish boshlandi-**ku**. — **Axir**, dalalarda ish boshlandi. — Dalalarda ish boshlandi-**da**. — Dalalarda ish boshlangan**dir**.

So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegaralash, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalarga yuklamalar deyiladi.

Yuklamalarga: 1) *axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki, na ... na* so'zlari;

2) *-mi, -chi, -gina (-kina, -qina), -dir, -u, -yu,*

-da, -a **singari qo‘shimchalar kiradi.**

Ularning birinchi guruhi so‘z-yuklamalar, ikkinchi guruhi esa qo‘shimcha-yuklamalar sanaladi.

228-mashq. **Jadval asosida yuklamalarning ma’no turlari haqida gapiring.**

Yuklamalarning ma’no turlari	Yuklamalar
So‘roq-taajjub yuklamalari	*-mi, -chi, -a (-ya)*
Kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari	*hatto, -ku, ham, nahotki, -u (-yu), -da, -oq (-yoq), axir, g‘irt*
Ayiruv-chegaralov yuklamalari	*faqat, -gina (-kina, -qina), atigi*
O‘xshatish-qiyoslash yuklamalari	*go‘yo, go‘yoki, xuddi, naq*
Gumon yuklamasi	*-dir*
Inkor yuklamalari	*hech, sira, na... na*

229-mashq. **Berilgan gaplarda *-u (-yu), -da, na... na* yordamchilarining qaysi o‘rinda bog‘lovchi, qaysi o‘rinda yuklama vazifasida kelganini aniqlang.**

1. Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurullab ketdi. (*O. Yoqubov*) 2. Biladilar-da bu kishi. Yovlar bilan olishgan-a! (*O. Yoqubov*) 3. Mana endi daradan chiqar-chiqmas, uning isitmasi ko‘tarilib, ko‘z oldini g‘alati tuman qoplab oldi-yu, hamma narsa tushday tuyula boshladi. (*O. Yoqubov*) 4. Men-ku yolg‘iz edim, Na otam, Na onam, na oilam bor.... (*E. Vohidov*) 5. Na so‘ngiga yetoldi ishning, Na dunyoni anglab ulgurdi. (*E. Vohidov*) 6. Dunyoga to‘z-g‘iding bamisoli par, Na saljuq, na Chingiz qilmadi shafqat.

XII-Mustahkamlash: O’quvchilarni baholash.

1. Qanday so‘zlar turkumi yuklama deyiladi?
2. Yuklamalar qanday ma’no turlariga ega?
3. Ularni qatnashtirib gaplar yozing.

231-mashq. *Uyga vazifa.* **«Mustaqillik va Navro‘z» mavzusida matn tuzing. Matningizda yuklamalardan ham foydalaning.**